

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK -----

**Xushnazarova Ohista Ilhomovna
“ShARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA
HOTAM TOY HAQIDAGI SUJETLARNING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI”**

5A220101 –Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi

**Magistr akademik darajasini olish uchun
yozilgan dissertasiya**

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Tohirov S.Q.

SAMARQAND - 2018

M U N D A R I J A

Magistrlik dissertatsiyasining umumiy tavsifi	3
I bob. Musulmon sharqi adabiyotida Hotam Toy timsolining genezisi va o'rganilishi	10
1.1. Sharqshunoslikda Hotam Toy haqidagi sujetlarning o'rganilishi	10
1.2. Hotam Toy timsolining tarixiy va badiiy ildizlari	18
II bob. Turkiy va fors-tojik adabiyotida Hotam Toy haqidagi sujetlar	31
2.1. "Hotamnoma" asarining kompozitsiyasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	31
2.2. She'riy va nasriy hikoyatlarda Hotam Toy timsoli	41
III bob. Alisher Navoiy ijodida Hotam Toy timsoli	54
3.1. Alisher Navoiy she'riyatida Hotam Toy timsoli	54
3.2. Alisher Navoiyning epik asarlarida Hotam Toy obrazi	65
Xulosa	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	79

Magistrlik dissertatsiyasining umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimiz o'zining gullab-yashnashi va istiqboli sari dadil odimlayotgan, diyorimizda milliy mafkuramizning baquvvat poydevori ko'tarilayotgan bugungi kunda adabiy merosimizga qayta-qayta murojaat etish ehtiyoji ortib bormoqda. Istiqlolni qo'lga kiritganimizdan so'ng xalqimizning o'z vatani, madaniyati, tili, milliy merosi, qadriyatlari tarixini bilishga va o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Mustaqillikka erishgan ilk kunlardan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir ma'naviy va madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va ularni yaxlit holga keltirish – istiqlol davri adabiyotshunoslari, xususan, mumtoz adabiyot tadqiqotchilari oldida turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir namunalarni o'rganish va xalqimiz hukmiga havola etish bugungi kunning muhim vazifalaridan ekanini ta'kidlab, shunday degan edi: «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish payti keldi. Chunki, o'zingizga ma'lumki, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanar edi».¹

Insonlarni komillik sari yetaklovchi manbalardan biri bu – adabiyot hisoblanadi. Xususan, mumtoz adabiyot namunalari o'tmish tariximizni shonli va buyuk ibratini namoyon qilib turadi. Barcha davrlarda bo'lgani kabi mumtoz adabiyot vakillari ham o'z ijod namunalarida zamon muammolari, qahramonlari, ijtimoiy turmushni qalamga olganlar. Ularda mahorat maktabining shakllanishi uchun xalq og'zaki ijodi hamda ustoz ijodkorlar va ularning adabiy merosi muhim

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat. 2008

o'rin tutgan. Shuning uchun ham ular yaratgan bebaho asarlarda an'ana va mahorat masalasi muhim qirralardan biri bo'lib qolaveradi. Zero, an'analardan xoli bo'lgan, u yoki bu adabiyot namunasidan, xalq og'zaki ijodi bo'ladimi, yozma adabiyot namunasi bo'ladimi ta'sirlanmasdan yaratilgan asarlar uchramaydi. Mumtoz asarlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ulardagi umuminsoniy g'oyalar juda yashovchan bo'lib, har bir yangi davr ruhiga hamohang bo'ladi, ezgulik va adolat, odamiylikni targ'ib etib, kishilarning qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadi. Inson omili birinchi bosqichga ko'tarilgan, yaxshi insoniy axloqni ulug'lash, ezgulik, e'tiqod, rostgo'ylik, ma'naviy yetuklikni himoya qilish, ko'proq va dadilroq turmushga tadbiq etish zo'r ijtimoiy ahamiyat kasb etgan davrda, mumtoz adabiyotda asrlar davomida kuylanib kelingan insonparvar g'oyalarning roli yanada oshdi. Shunday azaliy umuminoniy g'oyalardan biri himmat va saxovat g'oyasi bo'lib, uning adabiyotdagi o'ziga xos timsoli Hotam Toy obrazidir.

Turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotining eng mashhur badiiy timsollaridan biri bo'lgan Hotam Toy haqidagi qissa va hikoyatlar, lirik asarlardagi murojaatlar adabiyotimiz xazinasining muhim bo'lagini tashkil etadi. Ularni adabiy an'analar silsilasida tadqiq etish, g'oyaviy badiiy xususiyatlarini yoritish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur timsol ishtirok etgan ayrim badiiy ijod namunalari turli darajada tahlilga tortilgan bo'lsa-da, yaxlit holda monografik planda tadqiq etilmagan. Binobarin, arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotidagi eng mashhur obrazlardan biri, ko'pincha saxovat va himmat timsoli bo'lib keladigan Hotam Toy haqida yaratilgan hikoyat va qissalar, talmeh sifatida murojaat etilgan she'riy matnlarning paydo bo'lishi va tarqalishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, nasriy va she'riy hikoyatlar poetikasi, yakka va turkum hikoyatlarning o'ziga xosligi, bu boradagi an'ana va yangilanishlar kabi masalalarni yaxlit adabiy hodisa sifatida yoritish ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydigan omillardir.

Mavzuning o'rganilishi. Arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida Hotam Toy shaxsiyati bilan bog'liq sujetlar talaygina. Adabiyotshunoslikda ularni

jamlash va o'rganish, tahlil va talqin qilishga doir ayrim tajribalar ham mavjud. Xususan, XX asrning II yarmi hamda yangi asr boshlarida o'zbek adabiyotshunosligida Hotam obrazi qatnashgan asarlar haqida ayrim ilmiy maqolalar e'lon qilina boshladi. Ular bevosita Hotam Toy haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirishga zamin hozirladi.

Mashhur rus sharqshunos olimi Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" monografiyasida Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" va Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonlarida mavjud bo'lgan Hotam Toy haqidagi hikoyatga doir mulohaza yuritadi.² Ayni shu manbalarning qiyosiy tadqiqi S.Tohirovning "Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" dostoni" maqolasida³ ham mavjud. Sh.Shukurovning 1965-yilda e'lon qilingan "Sa'diy va Navoiy ijodida Hotami Toyi hikoyatining mohiyati va o'rni" nomli maqolasida mazkur tarixiy va afsonaviy shaxs bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar, shuningdek, Sa'diyning "Guliston" hamda Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonlaridagi hikoyatlarning qiyosi beriladi. Ikkinchi manba haqida, shuningdek, N.Karimovanning "Navoiy-mehnat kuychisi", Z.Ahrorovanning "Hayrat ul-abror hayratlari", O.Jo'rayevning "Alisher Navoiy va Haydar Xorazmiy", D.Salohiyning "An'ana va vorislik" kabi maqolalarda ham ma'lumot berilgan. "Sarguzashti Hotam"⁴ hamda "Hotamnoma"⁵ asarlari nashrlariga yozilgan J.Azizqulov va A.Matg'oziyevning "so'zboshi"larida ham mazkur timsolning tarixiy va afsonaviy ildizlari haqida ma'lumot berilgan.

Ushbu mavzuga daxldor bo'lgan qisqa mulohazalarni Yu. Salimov tadqiqotida ham uchratamiz.⁶ U fors-tojik adabiyotidagi roviyona yoki «xalq kitobi» uslubida yozilgan asarlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganar ekan, bir necha syujetlar yig'indisidan iborat bo'lgan yaxlit asarlarni alohida adabiy hodisa sifatida

² Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фуззули. – М.: Изд. Восточной литературы, 1962. 207-бет.

³ Тоҳиров С. Хожу Кирмонийнинг «Равзат ул-анвор» дostonи // СамДУ Илмий ахборотномаси. 2015 йил, 2-сон. 74-76-бетлар.

⁴ Sarguzashti Hotam. Tayyorkunandagoni matn J.Azizqulov va S.Davronov. – Dushanbe, 1967.

⁵ Hotamnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.

⁶ Salimov Yu. Nasri rivoyatii forsu tochik. – Dushanbe: Donish, 1971.

ajratadi. Ulardan biri sifatida Hotam obrazi qatnashgan qissalar haqida ham alohida to'xtaladi: "Bizga qadar Hotam timsolining uch xil qirrasi ma'lum:

1. Tarixiy Hotam—arab shoiri.
2. "Bo'ston", "Bahoriston", "Risolayi Hotamiya" kabi asarlarda tilga olingan saxiy inson.
3. Bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam".⁷

Biroq qayd etilgan ilmiy manbalar u yoki bu asar tadqiqiga bag'ishlangan ishlardir. Binobarin, ular Hotam Toy timsolining turkiy va fors-tojik adabiyotida qo'llanish salmog'i va g'oyaviy-badiiy qirralari haqida to'liq ilmiy tasavvur bera olmaydi. Qolaversa, she'riyatda mazkur timsolning talmeh san'ati namunasi sifatida qo'llanishi masalasi ham alohida tadqiq etilmagan.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida Hotam Toy haqida yaratilgan hikoyat va qissalar, she'riy matnlar ilk marotaba yaxlit adabiy hodisa sifatida tadqiq etiladi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

1. «Sharq mumtoz adabiyotida Hotam Toy haqidagi sujetlarning qiyosiy-tipologik tahlili» deb nomlangan ushbu mavzuga, avvalo, milliy istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan yondashilayotganligida;

2. Arab, fors-tojik va turkiy tillardagi adabiy manbalar asosida Hotam Toy timsolining tarixiy va afsonaviy ildizlari hamda adabiyotga kirib kelishi haqida birinchi marotaba yaxlit ilmiy tasavvur hosil qilinayotganligida;

3. Fors-tojik va turkiy mumtoz adabiy manbalardagi she'riy va nasriy hikoyatlar ilk marotaba jamlanib qiyosan tadqiq etilayotganligida;

4. Mumtoz shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy she'riyatida Hotam timsolining qo'llanishi bilan bog'liq adabiy matnlar ilk bora yaxlit holda tahlilga tortilayotganligida.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

⁷ Shu kitob, 108-109 betlar.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi kafedrası 2016-2020-yillar uchun "Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalasi" mavzusini tanlagan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muammo bilan bog'liq holda turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodida Hotam Toy timsolining badiiy ishlanishi masalasini yoritishga qaratilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining obyekti va predmeti. Ushbu tadqiqot ishining **obyektini** mumtoz adabiyot namunalarida Hotam Toy obrazi qatnashgan she'riy va nasriy hikoyatlar, lirik she'riyat namunalari tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishning **predmeti** qilib, "Sarguzashti Hotam" [51] va "Hotamnoma" [56]⁸ qissalari, Sa'diy Sheroziyning "Guliston" [52] va "Bo'ston" [53], Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" [52], Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" [30], Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" [55], Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" [40, 43], Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" [49], Xojaning "Maqsad ul-atvor" [55] dostonlari kabi asarlar olindi. Hotam timsoliga u yoki bu darajada murojaat etilgan Y.E.Bertels, Y.Salimov, Sh.Shukurov, J.Azizqulov, A.Matg'oziyev, N.Karimova, D.Salohiy, Z.Ahrorova, O.Jo'rayev, S.Tohirov kabi olimlarning ishlariga ham ilmiy manba sifatida murojaat etildi.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asoslari va metodlari. Milliy istiqlool mafkurasi, mamlakatimiz Prezidentining milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko'rsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga oid qarashlari ushbu magistrlik ishining metodologik asosini tashkil etadi.

⁸ Hotamnoma. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1988. Ko'p marotaba murojaat etiladigan manbalarning adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqamlari kata qavs ichida ko'rsatiladi.

Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan Y.E.Bertels, A.Haitmetov, B.Valixo'jayev, A.Qayumov, N.Komilov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Mavzuni yoritishda ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, sharh va tavsif, matnning germeneytik tahlili metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Dissertatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad Hotam Toy timsolini g'oyaviy-badiiy tahlillar va talqinlar vositasida o'rganish, asarlardagi "Hotam Toy" hikoyatlarining axloqiy-ma'rifiy, badiiy-estetik jihatlarini, tamoyillarini aniqlash, shu orqali uning o'zbek va fors-tojik adabiyoti tarixidagi o'ziga xos mavqeini, nufuzini, ta'sirini asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Hotam Toy shaxsiyati haqidagi ilmiy va adabiy manbalar asosida obrazning tarixiy va afsonaviy ildizlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va boyitish;
- "Hotamnoma" asarining fors-tojik va turkiy variantlari, ularning sujet va kompozitsiyasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoritish;
- Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor", Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor", Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostonlari tarkibidagi she'riy va nasriy hikoyatlarni ilmiy tahlilga tortish;
- Lirik she'riyatda Hotam shaxsiyatiga murojaat etish bo'yisha statistik tadqiqot o'tkazish, Alisher Navoiy lirikasida Hotam Toy timsolining g'oyaviy-badiiy qirralarini matn tahlili, sharh va germeneytik metodlar asosida yoritish;

- O'rganilgan materiallar asosida turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotida Hotam Toy timsolining qo'llanish salmog'i, g'oyaviy qirralari va badiiyatiga doir umumlashma xulosalar chiqarish.

Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi natijalari arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotidagi mashhur timsollardan biri Hotam Toy haqida yaratilgan hikoyat va qissalar, she'riy matnlarning genezisi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, nasriy va she'riy hikoyatlar, an'ana va ijodiylik kabi masalalarni yoritishga ko'maklashadi. Dissertatsiyada adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan obraz tushunchasi, uning badiiy qirralari Hotam Toy timsoli misolida tadqiq etiladi. Bu esa ishimizning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Qolaversa, mazkur adabiy manbalarning aksariyati, xususan, Sa'diy Sheroziy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy adabiy merosi mamlakatimiz ta'lim tizimining turli bosqichlari o'quv dasturlariga kiritilgan figuralardir. Tadqiqotimizning **amaliy** ahamiyati shundan iboratki, uning xulosa va natijalaridan umumta'lim maktablari va akademik litsey darsliklari hamda bakalavriat oliy ta'lim bosqichining "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi o'quv rejasidagi "Navoiyshunoslik", "Ozbek adabiyoti tarixi" fanlarining o'quv dasturlarini, o'quv-uslubiy adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va tarkibi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, jami olti faslni o'z ichiga oladigan uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 83 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

MUSULMON SHARQI ADABIYOTIDA HOTAM TOY

TIMSOLINING GENEZISI VA O'RGANILISHI

I.1. Sharqshunoslikda Hotam Toy haqidagi sujetlarning o'rganilishi.

Mumtoz asarlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ulardagi umuminsoniy g'oyalar asrdan asrga o'tib, har bir yangi davr ruhiga hamohang bo'ladi. Ular ezgulik va adolat, odamiylikni targ'ib etib, kishilarning ma'naviyati va tafakkurida ijobiy ta'sir etadi. Inson omili birinchi bosqichga ko'tarilgan, yaxshi insoniy axloqni ulug'lash, ezgulik, e'tiqod, rostgo'ylik, ma'naviy yetuklikni himoya qilish, ko'proq va dadilroq turmushga tadbiq etish zo'r ijtimoiy ahamiyat kasb etgan davrda, mumtoz adabiyotda asrlar davomida kuylanib kelingan insonparvar g'oyalarning roli yanada oshdi. Shunday azaliy umuminsoniy axloqiy qadriyatlardan biri himmat va saxovat, muruvvat g'oyasidir.

Musulmon sharqi adabiyotining ilk davrlaridan boshlab saxovat mavzusi alohida mavqega ega. Xususan, turkiy adabiyotning ilk namunalari bo'lgan "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari, bo'lib, uning adabiyotdagi o'ziga xos timsoli Hotam Toy obrazidir.

Turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotining eng mashhur badiiy timsollaridan biri bo'lgan Hotam Toy haqidagi qissa va hikoyatlar, lirik asarlardagi murojaatlar adabiyotimiz xazinasining muhim bo'lagini tashkil etadi.

Arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida Hotam Toy shaxsiyati bilan bog'liq sujetlar talaygina. Adabiyotshunoslikda ularni jamlash va o'rganish, tahlil va talqin qilishga doir ayrim tajribalar ham mavjud. Xususan, XX asrning II yarmi hamda yangi asr boshlarida o'zbek adabiyotshunosligida Hotam obrazi qatnashgan asarlar haqida ayrim ilmiy maqolalar e'lon qilina boshladi.

Mashhur rus sharqshunos olimi Y.E.Bertels o'zining "Nizomiy" monografiyasida "Maxzan ul-asror" dostoniga fors-tojik va turkiy tillarda bitilgan naziralar haqida to'xtalib, Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" dostoni, ayniqsa,

undagi o'n to'rtinchi hikoyatga e'tibor qaratadi: "Ravzat ul-anvor"ning o'n to'rtinchi hikoyati alohida qiziqish uyg'otadi. Unda Tay qabilasidan bo'lgan badaviy Hotam (olim uni Xatim deb atagan – X.O.)ning o'limidan keyin yuz bergan mo'jiza haqida hikoya qilinadi".⁹ Tadqiqot davomida olim "Maxzan ul-asror"ning turkiy naziralari haqida to'xtalib, Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror"ini tilga oladi hamda unda Hotam Toy haqidagi beshinchi hikoyat mazmunini keltiradi. "Bu hikoyat, garchand tarjima bo'lmasa-da, yuqorida eslab o'tganimiz Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" dostonidagi o'n to'rtinchi hikoyat mazmuninig takroridir".¹⁰ Ayni shu manbalarning qiyosiy tadqiqi S.Tohirovning Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" dostoni maqolasida¹¹ ham mavjud.

Sh.Shukurovning 1965-yilda e'lon qilingan "Sa'diy va Navoiy ijodida Hotami Toyi hikoyatining mohiyati va o'rni" nomli maqolasida mazkur tarixiy va afsonaviy shaxs bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar, shuningdek, Sa'diyning "Guliston" hamda Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonlaridagi hikoyatlarning qiyosi beriladi.

Ushbu mavzuga daxldor bo'lgan muhim mulohaza va ma'lumotlar Yu. Salimov tadqiqotida ham uchratamiz.¹² U fors-tojik adabiyotidagi roviyona yoki «xalq kitobi» uslubida yozilgan asarlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganar ekan, bir necha sujetlar yig'indisidan iborat bo'lgan yaxlit asarlarni alohida adabiy hodisa sifatida ajratadi. Ulardan biri sifatida Hotam obrazi qatnashgan qissalar haqida ham alohida to'xtaladi:

"Qissa ichida qissa usulida yozilgan asarlardan biri Hotam Toy nomi bilan bog'liq bo'lib, "Hotam sarguzashti" deb nomlanadi. Fors-tojik va turkiyzabon xalqlar adabiyotida Hotam qo'li ochiqlik, saxovat, ezgulik, birovning hojatini

⁹ Бертельс. Е.Э. Низами // Избранные труды. – М.: Издательство Восточной литературы, 1962. 206-стр. (Rus tilidan tarjima qilindi).

¹⁰ Бертельс Е.Э. Низами // Избранные труды. – М.: Изд. Восточной литературы, 1962. 213-бет.

¹¹ Тоҳиров С. Хожу Кирмонийнинг «Равзат ул-анвор» достони // СамДУ Илмий ахборотномаси. 2015 йил, 2-сон. 74-76-бетлар.

¹² Salimov Yu. Nasri rivoyatii forsu tochik. – Dushanbe: Donish, 1971.

chiqaruvchi javonmardlik va saxovat tushunchalarining umumlashmasi sifatida tasvirlanadi. Bu xalqlar adabiyoti va folklorida o'nlab asarlar borki, ular vositasida ezgu insoniy fazilatlar tasvirlanadi".¹³

Olim Hotam obrazining axloqiy-estetik ahamiyati haqida fikr-mulohazalarini bayon etar ekan, mazkur timsolning manbalarda uch xil suratda namoyon bo'lishini qayd etadi:

- 1) tarixiy Hotam – arab shoiri;
- 2) “Bo'ston”, “Bahoriston”, “Risolayi Hotamiya” kabi asarlarda tilga olingan saxiy inson;
- 3) bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam.

“Hotam sarguzashti” asarida u goh xayoliy-afsonaviy qahramon, gohida esa real shaxs sifatida gavdalanadi".¹⁴

Yu.Salimov “Sarguzashti Hotam” kitobining kompozitsiyasi haqida to'xtalib, uning “Chor darvesh” va “Ming bir kecha”ga monand ekanligi, “qissa ichida qissa” (“qissa andar qissa”) usulida yozilganligini qayd etadi. Olimning fikricha, asar qadimiy qissa va hikoyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, zohiran XVI-XVII asrlarda yaxlit asar shakliga keltirilgan. Chunki, Husayn Voiz Koshifiyning (XV asr) “Risolayi Hotamiya” nomli nafis asarida “Hotam sarguzashti”ga hech qanday ishora yo'q. “Hotam sarguzashti”ning tili va uslubiga ko'ra uni XVI asrdan keyin yaratilganligini taxmin qilish mumkin. Unda “Samaki ayyor” va Beg'amiyning “Dorobnoma” asarlaridagi kabi sodda va pishiq uslubni ko'rolmaymiz, balki uning uslubi XVII-XIX asrlardagi qissa va hikoyatlariga o'xshashligini ko'ramiz. Uning tili “Chor darvesh”ga tenglasholmasa ham, o'ziga xos ravonlik va tarovatga ega".¹⁵

“Hotamnoma” kitobi og'zaki va yozma adabiyotning uyg'unligi uslubida yaratilgan qissalarga monand. “Hotam sarguzashti” asar kompozitsiya jihatdan “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” asarlaridan shunisi bilan farq qiladiki,

¹³ Shu kitob, 108-bet. (Tojik tilidan tarjima qilindi)

¹⁴ Shu kitob, 109-bet.

¹⁵ Shu yerda.

mazkur asarlarda mazmuni asosiy qahramon tilidan rivoyat qilinadi. Biroq, “Hotam sarguzashti”da asosiy (bosh) qahramon ya’ni Hotam naql qiluvchi ham, tinglovchi ham emas, balki, asarda bevosita ishtirok etuvchi asosiy qahramondir. Bu usul asarning yaxlitligini ta’minlagan.

Olimning mazkur mulohazalari turkiy tilda yaratilgan “Hotamnoma” asariga ham xosdir. “Panchatantra”, “O’n shahzoda sarguzashti”, “Chor darvesh” kabi asarlardagi har bir hikoyatning qahramonlari boshqa-boshqa shaxslar bo’lib o’zaro aloqador emas. Shu jihatdan ularda yaxlitlik ko’zga tashlanmaydi. Biroq, “Hotam sarguzashti”dagi barcha qissa va hikoyatlarning qahramoni bir shaxs ya’ni Hotam bo’lib, butun asar mundarijasining yaxlitligini ta’minlagan. Asarning shu jihatini inobatga olib aytish mumkinki, mazkur qissa realistik povestlarning shakllanishida ma’lum ta’sir ko’rsatgan.¹⁶

“Hotamnoma”ning forscha asliyi bo’lgan “Sarguzashti Hotam”da, olimning fikricha, yana bir o’ziga xoslik shundaki, har bir bob mazmuni bitta hikmatli baytdagi masala bilan bog’langan yoki bir bayt bir bob mazmunini xulosalaydi. Masalan, quyidagi baytda asarning 2-bobi mazmuni ifodalangan:

Tu neki mekunu dar dajla andoz,
Ki ezid dar biyobonat dihad boz.

Mazmuni: Sen yaxshilikni qilgin-u, daryoga tashla. Tangri uni biyobonigga qaytaradi.

Yettita pandnoma bayt Hotamning yetti sarguzashti mundarijasini tashkil etadi. Bunday uslubiy jihat asarning sarguzashtlik xususiyatini oshirib, o’quvchini yanada ko’proq o’ziga jalb etishiga sabab bo’lgan.

Olim “Sarguzashti Hotam” haqida yana shunday muhim ma’lumotlarni keltiradi: ““Sarguzashti Hotam” kitobi XVIII-XIX asrlarda forsiyzabonlar va Hindistonning urdu tilida gaplashuvchi xalqlari, o’zbek, turkman va boshqa turkiyzabon xalqlar orasida shuhrat qozonib, shu tillarga tarjima qilingan. XVIII asr oxirida urdu shoiri Haydarbaxshi Haydariy (1823-yilda vafot etgan) asarni urdu

¹⁶ Shu kitob, 110-bet.

tiliga tarjima qildi va bu asar “Oroishi mahfil” (“Majlislarning bezagi”) nomi bilan mashhur”.¹⁷

“Sarguzashti Hotam”¹⁸ hamda “Hotamnoma”¹⁹ asarlari nashrlariga yozilgan J.Azizqulov va A.Matg‘oziyevning “so‘zboshi”larida ham mazkur timsolning tarixiy va afsonaviy ildizlari haqida ma’lumot berilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida Hotam Toy obraziga murojaat etish asosan ikki sabab bilan kuzatiladi:

1. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” va Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonlaridagi hikoyatlar tahlili munosabati bilan.
2. Xalq kitobi sirasiga kiritiladigan “Hotamnoma” asarining nashri munosabati bilan.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyat haqida ko‘plab o‘quv adabiyotlari va ilmiy ishlarda fikr-mulohazalar mavjud. Xususan N.Mallayev²⁰, B.Valixo‘jayev²¹, R.Vohidov va H.Eshonqulov²², D.Yusupova²³ tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida; T.Jalolov²⁴, A.Qayumov²⁵, M.Muhiddinov²⁶, N.Karimova²⁷, D.Salohiy²⁸, M.Mirzaahmedova²⁹ va boshqa ko‘plab olimlarning monografiya, risola va ilmiy maqolalarida Hotam Toy obraziga u yoki bu darajada murojaat etilgan.

Xususan, N.Karimovanning “Navoiy-mehnat kuychisi”, Z.Ahrorovanning “Hayrat ul-abror hayratlari”, O.Jo‘rayevning “Alisher Navoiy va Haydar

¹⁷ Shu kitob, 110-bet.

¹⁸ Sarguzashti Hotam. Tayyorkunandagoni matn J.Azizqulov va S.Davronov. – Dushanbe, 1967.

¹⁹ Hotamnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.

²⁰ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

²¹ Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Samarqand, 2002.

²² Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr, 2006.

²³ Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: Tamaddun, 2015.

²⁴ Jalolov T. Xamsa talqinlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at, 1961.

²⁵ Qayumov A. “Hayrat ul abror” talqini. – Toshkent: Fan, 1977.

²⁶ Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Fan, 2005.

²⁷ Karimova N. Navoiy – mehnat kuychisi // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1965-yil, 1-son. 48-51-betlar.

²⁸ Salohiy D. An‘ana va vorisiylik // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2016-yil, 1-son. 25-30-betlar.

²⁹ Mirzaahmedova M. Navoiyning “Hayrat ul-abror” va Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonlari // Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. 83-89-betlar; Mirzaahmedova M. Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1980-yil, 5-son. 66-69-betlar.

Xorazmiy” kabi maqolalarda Alisher Navoiyning asarlaridagi hikoyat tahlilga tortilgan.

N.Karimovaning maqolasida mehnat masalasi asosiy planga olib chiqilgan bo’lib, olimning fikricha “Navoiyning mehnatga va mehnat ahliga bo’lgan munosabati... “Hotam Toy” hikoyasida ravshan namoyon bo’ladi”. Olim asardagi Hotam timsoliga shunday ta’rif beradi: “Hotam saxiylik bilan nom chiqargan, o’z boyligini muhtojlarga ayamay sarf qiluvchi rahmdil shaxs. Shuning bilan birga, muhtojlarga ancha yordam berishi bilan mag’rur odam. U zolim emas. Navoiy Hotamni olihimmat, saxiy obraz qilib berishdan ma’lum maqsadni ko’zda tutadi. U, bir tomondan, o’z davridagi ziqna, shafqatsiz boyonlarni Hotamdan o’rnak olishga undasa, ikkinchi tomondan, mehnatni, yaratuvchanlikni har qanday saxiylikdan ustun ekanligini uqtirmoqchi bo’ladi”.³⁰ Olim hikoyat (maqolada “hikoya” atamasi qo’llangan – X.O.)ning o’ziga xosligi haqida shunday yozadi: “Hikoya hajm jihatdan juda kichik – 22 baytdan iborat. Unda birgina voqea bayon etiladi. U yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan, undagi har bir so’z, har bir detal asosiy maqsadga, g’oyani chuqurroq ifodalashga, obrazni jonli qilishga, voqeani to’laroq tasvirlashga qaratilgan”.

M.Mirzaahmedovaning maqolasida Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonidagi hikoyat asosida “Xalq og’zaki ijodi va yozma adabiyotda saxiylik, qo’li ochiqlik timsoli sifatida mashhur bo’lgan “Hotam Toy hikoyasi” tahlilga tortilgan. Olimning fikricha hikoyat mazmuni Xoja g’oyalariga bo’ysundurilib, saxovatli Hotam odil shohga qarama-qarshi qo’yiladi. Hikoyatdagi shoh har qancha adolatparvar, insonparvar bo’lmasin, baribir, Hotami Toy undan saxiyroq, undan saxovatliroq”³¹. Olima “Maqsad ul-atvor” dostonidagi hikoyatni Navoiyning “Hayrat ul-abror”idagi hikoyat bilan qiyoslab bir qator qiziqarli mulohazalarni bildiradi.³²

³⁰ Karimova N. Navoiy – mehnat kuychisi // “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1965-yil, 1-son. 50-bet.

³¹ Mirzaahmedova M. Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni // “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1980-yil, 5-son. 69-bet.

³² Mirzaahmedova M. Navoiyning “Hayrat ul-abror” va Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonlari // Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. 86-bet.

D. Salohiyning “An’ana va vorisiylik” nomli maqolalarida Alisher Navoiy va salaflarining ijodiy metodi haqida fikr-mulohaza yuritilib, bu borada A.Hayitmetov, B.Valixo’jayevning qarashlari rivojlantirilgan. Ustoz Hotam Toy haqidagi hikoyat haqida alohida to’xtaladi: “Bu hikoyatda qissadan hissa mehnatni ulug’lashdan iborat”, degan o’ziga xos xulosani bildiradilar. “Navoiy... “O’tinchi chol va Hotami Toyi hikoyati”ni keltirar ekan, biror tarixiy voqea yoki tarixiy shaxs ishtiroki vositasida badiiy obraz yaratadi (Ya’ni tarixiy shaxs – Hotami Toyi). Ammo Navoiy har qancha tarixiy voqelikni akslantirishga, aniq va mavjud hodisalar haqida so’zlashga urinmasin, uning tasvir uslubi ham xuddi Nizomiyning tasvir uslubi kabi romantik tasvir uslubi edi”.³³

A. Matg’oziyevning “Hotamnoma” asariga yozgan so’zboshisida³⁴ Hotam Toy shaxsiyati haqidagi ma’lumotlar, “Hotamnoma” asarining manbalari, tarqalishi, nusxalari haqida bir qator muhim ma’lumotlar berilgan.

“Hotamnoma” – folklor asari bo’lib, uning muallifi va yaratilgan vaqti ma’lum emas. Asardagi voqealar quldorlik va feodalizm tuzumi oralig’ida bo’lib o’tgan. Toshbosma nusxada qayd qilinishicha, Hotam Muhammad payg’ambar zamonasidan 150 yil avval vafot etgan. U Yamanning Tay qabilasidan bo’lgan. “G’iyos ul-lug’at”da bu etnonim shunday izohlangan: “Tay-Yamandagi qabila nomi bo’lib, Hotam Toyi shu qabilaga mansubdir” (489-bet). Lekin Hotam boshidan kechirgan sarguzashtlar faqat Arabistonda emas, balki Hindiston, Eron, O’rta Osiyo, Kavkaz, Xitoy kabi bir qancha mamlakatlarda bo’lib o’tadi”.³⁵

Olimning fikricha, “Hotam haqidagi asar dastlab arab tilida vujudga kelgan”. Bu fikrni u “Hotamnoma”ning so’nggi hikoyasida hammomi bodgardning darvozasiga “suryoniy til bila butubdurki” deb qayd qilinganligi bilan asoslaydi. Lekin O’rta Osiyo xalqlari orasida uning forscha varianti ancha keng tarqalgan edi. Mutaxassislarning fikricha, asar “Hotamning sarguzashtlari” nomi bilan XVI

³³ Salohiy D. An’ana va vorisiylik // “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2016-yil, 1-son. 27-bet.

³⁴ Matg’oziyev A. «Hotamnoma» haqida // “Hotamnoma” (Nashrga tayyorlovchi va so’zboshi muallifi A.Matg’oziyev). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. 3-6-betlar.

³⁵ Shu manba, 3-bet.

asrda, hatto undan oldin ham kitob qilingan. XVIII-XIX asrlarda hind, urdu, o'zbek, turkman, ingliz va qisman rus tillariga tarjima qilingan.

“Hotamnoma” XIX asr oxirida turkiy tilga tarjima qilingan. Ilk tarjima nusxalaridan biri Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limining qo‘lyozmalar fondida S-172 raqam nomeri bilan saqlanadi. Mazkur nusxa Oqsuvda Muhammadhasan Olim tomonidan forschadan tarjima qilingan bo‘lib, hijriy 1311 (milodiy 1893-1894) yilda Mirzo Abdulqodir oxun ko‘chirgan. Qo‘lyozma jami 182 varaqdan iborat bo‘lib, o‘rtadan taxminan 10-12 varaq yo‘qolgan.³⁶

Y.Salimovning yuqorida keltirilgan fikrlariga hamohang tarzda A.Matg‘oziyev ham “Hotamnoma”ning yettita mustaqil hikoyatdan tashkil topganligini qayd etadi. “Har bir hikoya ichida yana bir qancha kichik-kichik qissa va hikoyalar ham berilganki, bu jihatdan u “Ming bir kecha” , “Chor darvesh”, “Kalila va Dimna” kabi asarlar kompozitsiyasiga o‘xshab ketadi.³⁷

“Hotamnoma”da nafaqat muruvvat va saxiylik, balki to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sevgi va sadoqat, odamlar o‘rtasidagi do‘stlik va bag‘rikenglik, tinchlik va farovonlik kabi ezgu g‘oyalar ham ilgari surilgan. Bu g‘oyalar, olimning fikricha, Husnbonu tomonidan berilgan savollar yoki shartlarda o‘z ifodasini topgan.

Hotami Toyi haqida ayrim muxtasar ma’lumotlar internet saytlarida (jumladan, vikipediya.uz da) ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Sharq adabiyotining eng mashhur timsollaridan biri, asosan saxovat, muruvvat va himmat timsoli bo‘lib keladigan Hotami Toyi shaxsiyati, badiiy talqinlari haqida ilmiy ma’lumot, fikr va qarashlar adabiyotshunoslikda anchagina bo‘lishiga qaramay, ular asosan bir-birini takrorlaydi. Mazkur fikr-mulohazalar ayrim manbalar yuzasidan bildirilgan bo‘lib, obraz va uning badiiy talqinlari haqida yaxlit tasavvur bera olmaydi. Qolaversa, tilga olingan ilmiy manbalarning aksariyati o‘tgan asrning 60-80 yillar oralig‘ida

³⁶ Shu manba, 4-bet.

³⁷ Hotamnoma, - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 4-bet.

bajarilgan ishlar bo'lib, ularning g'oyaviy mundarijasida davr mafkurasining kuchli ta'siri seziladi. Binobarin, turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotida Hotam Toy timsoli ishtirok etadigan she'riy va nasriy, lirik va epik asarlarni umumlashtirgan holda, mazkur obraz bilan aloqador bo'lgan badiiyat hodisalarini tadqiq etish masalasi hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan muammolardandir.

I.2.Hotam Toy timsolining tarixiy va badiiy ildizlari.

Yu.Salimovning yuqorida tilga olingan tadqiqotida Xotam nomi bilan tilga olinadigan shaxslar, yoxud Hotam obrazining uchta qirrasini qayd etilgan:

1. Tarixiy Hotam—arab shoiri;

2. “Bo'ston”, “Bahoriston”, “Risolayi Hotamiya” (bunga yana “Guliston”, “Maxzan ul-asror” (Mavlono Haydar), “Hayrat ul-abror”, “Majma' ul-axbor”, “Maqsad ul-atvor” dostonlarini ham qo'shish mumkin – X.O.) kabi asarlarda tilga olingan saxiy inson.

3. Bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam.

Biroq monografiyada tarixiy shaxs bo'lgan arab shoiri Hotam haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi.

Avvalambor, ta'kidlash kerakki, ilmiy va badiiy manbalarda Hotamning ismi turlicha yozilganligi kuzatiladi, Jumladan: Hotam yoki Hotim; Toy, Toiy, Tay, To'yi, Toiy.

Arab yozuvida uning ismi quyidagicha beriladi حاتم طى

Birinchi so'zning ikkinchi bo'g'inidagi unli arab yozuvida alohida harf bilan ifodalanmasligi uchun, uni “a” yoki “i” tarzda talaffuz qilish mumkin. Shu tufayli Hotam va Hotim so'zlari grafika nuqtai nazaridan farq qilmaydi. Biroq Toy, Toiy va Tay so'zlari yozuvda ham vaznda ham farqli bo'lib, ularning kontekstda ifodalanish shakliga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Tadqiqotlar davomida tarixiy Hotam haqida ayrim ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ldik. Ular quyidagilar:

Akademik I.Yu.Krachkovskiyning “O'rta asrlar arab badiiy adabiyoti” («Арабская средневековая художественная литература») kitobida

VI-VIII asrlarda yashab ijod etgan arab shoiri Hotami Toiy (Xatim at-Ta'yi) haqida qisqacha ma'lumot beriladi.³⁸ Shoir devonining yagona nusxasi IX asrda yashagan xattot va olim Zubayr ibn Baqqor tomonidan tuzilgan bo'lib, Londonning Britaniya muzeyida saqlanadi. Mazkur devonni Angliyada yashagan nemis arabshunos olimi F.Krenkov 1897-yilda Leypsik shahrida nashr ettirgan. Afsuski, I.Krachkovskiyning tadqiqotida bu shoir haqidagi ma'lumotlari shu bilan chegaralanadi.

Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" asarida ham bir necha o'rinda Hotim at-Toiy tilga olingan. Jumladan:

Abu Tolib Abdussalom ibn Al-Husayn Al-Ma'muniy ijodidan keltirilgan namunalar orasida shunday bayt mazmuni bor:

*She'rlardan bokirasini senga bag'ishladim, ular Toyining nomini o'chirib, Jarir³⁹ ko'krigiga nayza sanchadi.*⁴⁰

Baytda Hotam timsoliga talmeh sifatida murojaat etilgan bo'lib, uning mashhur shoir ekanligiga, shu bilan birga, saxovatiga ishora etilgan.

Hotim Tayi haqida kitobning izohlar qismida tarjimon, nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi bo'lgan I.Abdullayev tomonidan shunday ma'lumot keltirilgan:

Hotim at-Tayy (aslida Toiy bo'lishi kerak. O'rta Osiyoda Hotam Toy nomi bilan mashhur) – islomgacha davrdagi arab shoiri. Najd viloyatining Tayy qabilasidan, nihoyatda saxiyliigi va karamliligi bilan mashhurdir. Uning haqida "Hotamdan ham saxiyoq" degan maqol ham bor. Saxiyliigi butun Sharqda afsonaga aylanib ketgan va uning haqida juda ko'p rivoyatlar to'qilgan.⁴¹

Tazkirada Abu-l-Fazl al-Hamadoniyy she'rlaridan keltirilgan misollar ichida ham Hotim (Hotam) timsoliga talmeh qilingan bayt bor:

³⁸ Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Том II. – Москва-ленинград: Издательство академии наук, 1956. стр-121.

³⁹ VII asrning II yarmi VIII asr boshlarida yashab o'tgan arab shoiri.

⁴⁰ Abu Mansur As-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr. (Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I.Abdullayev). – Toshkent: Fan, 1976. 196-bet

⁴¹ Shu kitob, 520-bet.

Va xoja bilan xodim o'rtasini uzoqlashtiruvchi, [non] sindirib [ulashgan] har bir kishi Hoshimdek [bo'lolmaydi].

*Ishni har qancha pishiq qilsa ham, hech kim Hotimdek emas, ulug' martabadagi yangi narsa qadimgisiday emas.*⁴²

Baytning birinchi misrasida tilga olingan shaxs Hoshim ibn Abdumannof ibn Abdulmutallib – Muhammad (a.s.)ning bobokalonlari bo'lib, Makkadagi Quraysh qabilasining eng katta tarmoqlaridan biri – hoshimiylarning asoschisi. U ocharchilik vaqtida odamlarga non sindirib ulashganligi uchun Hoshim ya'ni sindiruvchi, ushatuvchi ma'nolarini ifodalaydigan ismga ega bo'lgan.

Hotam esa baytda saxovat timsoli ham emas, shoir ham emas, tadbirkor, ishbilarmon, shunchaki yaxshi inson sifatida tilga olingan.

“Yatimat ud-dahr”ga kiritilgan yana bir shoir - Abu Bakr Muhammad ibn Al-abbos Al-Xorazmiyning tazmin san'ati asosida yozilgan she'rlari orasida esa shunday bayt bor:

Shamshirlarimiz ularga qarshi ko'tarilmoqda, go'yo u tufayli qon to'kayotgan kishilarni ular gunohsiz hisoblashadi.

Go'yo ularning tig'lari jang paytida “chidamlilik hatto chidamli bo'lishni ham uddalay olmaydi” [degan so'zga o'rgatib qo'yilganday].

Baytdan keyin “Oxirgi misra Hotim at-Toyiniki” degan qayd uchraydi.⁴³

Demak mazkur bayt Hotim (Hotam)ning misrasiga tazmin qilingan bo'lib, uning ikkinchi misrasi:

Go'yo ularning tig'lari jang paytida “chidamlilik hatto chidamli bo'lishni ham uddalay olmaydi” [degan so'zga o'rgatib qo'yilganday],-Hotam Toyi qalamiga mansubdir.

Hozircha shoir Hotam Toyining adabiy merosidan aniqlagan yagona misramiz shundan iborat. Biroq shu misraning o'zida ham juda nozik ma'no, qarshilantirish usuli, o'ziga xos oksyumoron qo'llangan.

⁴² Shu kitob, 326-bet.

⁴³ Shu kitob, 251-bet.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Hotam (yoki Abu Hotam) ismi bilan ikki kishi qayd etilgan. Ularning ikkalasi ham “Avvalg‘i tabaqadin” ya’ni tasavvufning ilk bosqichi vakillari hisoblanadi. Ularning birinchisi 43-tartib raqam bilan berilgan (nashrda, albatta) **Abu Hotam Attor** haqida shunday ma’lumot beriladi:

“Abu Turob Naxshabiyning aqronidindur, Abu Sa’id Xarrozning ustodi. Debdurlarkim, [Abu Hotam Attorning zohiri savdogarlarning zohiriga, botini esa, abror (yaxshilar, sufiy)lar botiniga o’xshab ketardi]. Va debdurlarki, avval kishikim, ishorat ilmidin so’z aytti, ul erdi. Ul debdurki, [sayohat qalblar bilandir]⁴⁴.

Izoh: Katta qavs ichidagi matnlar asliyatda arab tilida bo’lib, S.Raf’iddinov tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilingan.

Tazkirada keltirilgan yana bir shaxs - **Hotam Asamm q. s.** (63) haqida shunday ma’lumot beriladi:

Avvalg‘i tabaqadindur, kuniyati Abu Abdurahmon. Xuroson mashoyixining qudamosidindur. Shaqiq Balixiy bila suhbat tutubdur va Ahmad Xuzravayhning ustodidur. Ta’rix ikki yuz yettida Balx navohiysida olamdin o’tti. Derlarki, asamm emas erdi va bir amre voqe’ bo’ldiki, ani Asamm dedilar. Mashoyix kitobin o’qug’an ul kayfiyatni ma’lum qilur. Ul debdurki, [Agar xudoyingga osiy bo’lmoqchi bo’lsang, u seni ko’rmaydigan joyda osiy bo’l, ya’ni Allohga osiy bo’lmaki, har yerda u seni ko’radi]. Va ham ul debdurki, har kim bu yo’lg’a kirar, to’rt o’lumni o’ziga tutmak kerak: Mavti abyaz – va ul qorin ochlig‘idur va mavti asvad va ul xalq izosig’a sabr qilmaqdur va mavti ahmar – va ul nafs muxolafatidur va mavti axzar – va ul xirqag’a yurunlar tikmakdur, Andin so’rdilarki, qaydin nima yersen? Dedikim, [er va osmon xazinalari Allohnikiidir. Lekin munofiqlar (buni) anglamaslar].⁴⁵

⁴⁴ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. 46-bet.

⁴⁵ Shu kitob, 51-bet.

Mazkur tasavvuf namoyandalarining tarixiy Hotam Toyi bilan aloqadorligi bo'lmasa-da, Hotam timsolining shakllanishida ular haqidagi rivoyatlar ham muayyan ta'sirga ega bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Demak, tarixiy Hotam (yoki Hotim) nafaqat saxovatli inson, balki o'z davrining mashhur shoiri, donishmand va tadbirkor kishi bo'lgan. Uning shaxsiyatiga murojaat etish dastlab arab adabiyotida kuzatiladi. X-XI asrlar she'riyatida Hotam Toyi shaxsi va timsoliga murojaat etish ancha keng tus olgan bo'lib, bunda faqat talmeh san'ati sifatida emas, uning adabiy merosidan bahramand bo'lish ya'ni misra va baytlarini tazmin qilish holatlari ham mavjud bo'lgan.

Ayni shu davrdan boshlab Hotam timsoli fors-tojik adabiyotiga ham kirib kelganligi kuzatiladi. Bu borada fors-tojik mumtoz she'riyatining asoschilaridan bo'lgan "Odam ush-shuaro" Abu Abdulloh Ro'dakiy she'riyati alohida ahamiyatga ega. Ro'dakiy o'zining madhiyalarida hamda lirik she'rlarida Hotam timsoliga tez-tez murajaat etadi:

Hotami Toyi tuyi andar saxo,
Rustami Doston tuyi andar nabard.⁴⁶

Mazmuni: Saxovatda sen Hotam Toy, shijoatda esa Rustami doston kabisan.

Yoki:

Ne ki Hotam nest bo judi tu rod,
Ne ki Rustam nest dar jangi tu mard.⁴⁷

Mazmuni: Hotam sening saxovatingga teng kelolmaydi, Rustam esa jangda senchalik mard emas.

Ro'dakiy shuningdek, hotamsifat, saxovatpesha kabi ma'nolarni ifodalaydigan "hotamvash" va "hotamfosh" kabi yasama so'zlarni ham ishlatadi.

Ahamiyatli tomoni, Hotam timsoliga ilk murojaatlarda u ko'pincha madhiya mazmunidagi she'rlar yoki baytlarda qo'llanadi hamda aksariyat holda Rustam

⁴⁶ Osori Ro'dakiy. – Stalinobod: Nashriyoti davlatii tojikiston, 1958. 78-sah.

⁴⁷ Shu kitob, 238-bet.

timsoli bilan yonma-yon ishlatiladi. Jumladan, Umar Xayyomning ushbu ruboiysida ham Hotami Tay, Rustami Zol (Zolning o'g'li Rustam) timsoli bilan yonma-yon qo'llangan:

To dar tani tust ustuxonu ragu pay,
Az xonai taqdir maneh berun pay;
Gardan madeh ar xasm buvad Rustami Zol,
Minnat makash, ar do'st buvad Hotami Tay.

Mazmuni: Toki tanangda suyak, tomir va pay bor ekan (ya'ni toki tanang sog'lom, kuch-quvvating bor ekan), Taqdir uyidan tashqari chiqishga urinma.

Dushmaning Zolning o'g'li Rustam bo'lsa ham, bo'yin egma, do'sting Hotam Toy bo'lsa ham, minnatini tortma.

Umar Xayyomning she'rida biz ilk bora keyinchalik an'anaviy tus olgan "Hotamning minnati" mativiga duch kelamiz.

Badriddin Hiloliy masnaviylarida ham Hotam timsoliga tez-tez murojaat etiladi. Bunda timsolning yangicha talqinlarini ham uchratamiz:

Va gar kofir ba ehson dast girad,
Chu Hotam nomi o' hargiz namirad.

Mazmuni: Agar kofir ehsonga qo'l ursa, Hotam kabi uning nomi hech qachon o'lmaydi (o'chmaydi).

Baytda xayr-u ehson, saxovat insonning boshqa kamchiliklarini yopishi, uning ezgu nomini abadiylashtirishi haqidagi an'anaviy mazmun Hotam timsoli yordamida badiiy ifodalangan. Shunday mazmun Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostonida ham mavjud edi:

Qamug' til axi er sanosin ayur,
Axiylik qamug' ayb kirini yuyur.
Axiy bo'l senga so'z so'kunch kelmasun,
So'kunch kelgu yo'lni axiylik tiyur.⁴⁸

⁴⁸ Tohirov S. Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoni: matn, tadqiq va tahlil. – Sam.: SamDU nashri, 2009. 76-bet

*Mazmuni: Hammaning tili saxovatli kishining madhini qiladi, saxiylik kishilarning barcha kamchiliklarini yuvib ketadi. Saxiy bo'l, senga la'nat, so'kinch kelmasin, la'nat keltiradigan yo'lni saxovat berkitib qo'yadi.*⁴⁹

Hiloliy asarlarida Hotam timsoli sarkazm bilan sug'orilgan kinoyaviy baytlarda ham qo'llangan:

Xarj chu az kisai mehmon buvad,

Hotami Toyi shudan oson buvad.

Mazmuni: Xarajat mehmonning cho'ntagidan bo'lgach, Hotam Toylik qilish oson bo'ladi.

XII-XVI asrlar mobaynida Hotam Toy timsolining sujetli asarlardagi ko'plab interpretatsiyalari maydonga keldi. Ularda mazkur timsol bilan bog'liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan bo'lib, ular asosan quyidagilar:

- Hotam Toy bilan o'tinchi (yantoq orqalagan) cholning suhbatiga asoslangan sujet (Sa'diyning "Guliston", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonlarida);
- Hotamni sinash uchun eng sevimli va qimmatbaho otini so'ragan shoh haqidagi sujet (Sa'diyning "Bo'ston", Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" dostonlari);
- Hotamni o'ldirmoqchi bo'lgan podshoh yoki yigit haqidagi sujet (Sa'diyning "Bo'ston", Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostonlari)
- Hotam Toyning o'limdan keyin ham musofirlarni tuya go'shti bilan mehmon qilishi haqidagi sujet (Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor", Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonlari).

Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyjanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo'lib qatnashgan bo'lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o'taydi. Ushbu sujetlarning batafsil ilmiy-badiiy tahlili keyingi bobda rejalashtirilganligi tufayli, bu o'rinda shu mulohazalar bilan cheklanamiz.

⁴⁹ Shu kitob, 77-bet.

Yu.Salimovning yuqorida keltirilgan tasnifida uchinchi o'rinda qayd etilgan talqin - bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam haqidagi ma'lumotlar manbai "Sarguzashti Hotam", "Haft sayri Hotam Toy" yoxud "Hotamnoma" nomlari bilan fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan xalq qissasidir.

A. Matg'oziyevning fikricha, "Hotam haqidagi asar dastlab arab tilida vujudga kelgan". Bunga asos sifatida "Hotamnoma"ning so'nggi hikoyasidagi epizod - hammomi bodgardning darvozasiga "suryoniy til bila butubdurki", deb qayd qilinganligi keltiriladi. Biroq hozircha bu ma'lumotni tasdiqlaydigan aniq manbalar mavjud emas. Markaziy Osiyo va umuman musulmon Sharqi xalqlari orasida uning forscha variantlari bo'lgan "Sarguzashti Hotam" yoki "Haft sayri Hotam Toy" asarlari keng tarqalgan edi.

Mazkur asar qadimiy qissa va hikoyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, yaxlit asar sifatida shakllanishi XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Zero, Yu.Salimov to'g'ri qayd etganidek, Husayn Voiz Koshifiyning XV asr oxirlarida yaratilgan "Risolayi Hotamiya" nomli asarida "Hotam sarguzashtlari" haqidagi asar tilga olinmaydi. Yu.Salimovning fikricha, "Sarguzashti Hotam" asarining tili va uslubi XVI asrdan keyin yaratilganligini ko'rsatadi. "Unda "Samaki ayyor" va Beg'amiyning "Dorobnoma" asarlaridagi kabi sodda va pishiq uslubni ko'rolmaymiz, balki uning uslubi XVII-XIX asrlardagi qissa va hikoyatlariga o'xshashligini ko'ramiz. Uning tili o'ziga xos ravonlik va tarovatga ega".⁵⁰

"Sarguzashti Hotam" kitobi XVIII-XIX asrlarda fors-tojik va turkiy xalqlar, Hindistonning urdu tilida gaplashuvchi xalqlari orasida shuhrat qozonib, shu tillarga tarjima qilingan. Shunday tarjimalardan biri "Hotamnoma" kitobidir.

"Hotamnoma" XIX asr oxirlarida maydonga kelgan yoxud fors-tojik tilidan tarjima qilingan. Uning nusxalaridan biri Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limining qo'lyozmalar fondida S-172 inventar raqami ostida saqlanadi. Mazkur nusxa Oqsuvda Muhammad Hasan Olim tomonidan forschadan

⁵⁰ Shu yerda.

tarjima qilingan bo‘lib, hijriy 1311 (milodiy 1893-1894) yilda Mirzo Abdulqodir Oxun ismli kotib tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma jami 182 varaqdan iborat bo‘lib, o‘rtadan taxminan 10-12 varaq yo‘qolgan.⁵¹

Asarda qayd qilinishicha, Hotam Muhammad payg‘ambar zamonasidan 150 yil avval vafot etgan. U Yamanning Tay qabilasidan bo‘lgan. “G‘iyos ul-lug‘at”da bu etnonim shunday izohlangan: “Tay-Yamandagi qabila nomi bo‘lib, Hotam Toyi shu qabilaga mansubdir”. Lekin Hotam boshidan kechirgan sarguzashtlar faqat Arabistonda emas, balki Hindiston, Eron, O‘rta Osiyo, Kavkaz, Xitoy kabi bir qancha mamlakatlarda bo‘lib o‘tadi”.⁵²

Asarda Hotamning shajarasi quyidagicha bayon qilinadi: Hotam binni Tay binni Qahlon binni Rasan binni Naxshab binni Qahton binni Hud.

Asarda Hotamning tilga olingan barcha ajdodlari haqida muxtasar ma‘lumot berilgan. Ularning tug‘ilishi hayoti xalq qissalariga xos tarzda g‘ayri oddiy voqealarga boy qilib tasvirlanadi.

“Hudning otasi Yamanning hududida dehqonchilik qilar edi. Otasining o‘limidan so‘ng bir necha qavmning raisligi Hudga o‘tdi. Ma‘lum vaqt o‘tib Hudning xayolidan shunday o‘ylar o‘tdi: “Shundoq yoshlikning kuch-quvvati bor vaqtida go‘shada o‘turmog‘liq himmatdin yiroqdur”

Bir kuni hamma do‘stlar va qavmlarni jam qilib majlis qildi va xalqini Yaman podshohining itoatidan ozod qilishni, u bilan kuch sinashmoqchiligini, agar taxtni olsa, yurtini obod qilishni aytdi.

Hamma bu maslahatga rozi bo‘ldi. Hud yetti yilgacha xazina yig‘ish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Undan keyin lashkar to‘pladi. Bu xabar Yaman podshohiga yetdi. Yaman podshohi lashkarlarini yubordi.

Yaman podshohi yengildi. Hud yuz yil Yaman mulkini dod-adl bilan obod qildi”.

⁵¹ Shu manba, 4-bet.

⁵² Shu manba, 3-bet.

Shu tarzda Huddan boshlab Hotam Toy ajdodi arab qabilalaridan birida hukmronlik qilganligi asoslanadi.

Hotamning dunyoga kelishi shunday tasvirlanadi:

“Tay ammasining Adan ismli go‘zal qizini o‘z nikohiga oldi. Va undan bir o‘g‘il dunyoga keldi, otini Hotam qo‘ydi.

Vaqtiki Tay hukamo va nadimlarni hozir qilib, tole‘ini ko‘rub bayon qildi. Hammalari shod bo‘ldilar:

- Bu o‘g‘il podshoh bo‘lib, saxovat birla qiyomatg‘acha himmati oti qoladur.

Podshoh xush bo‘lub, hukamo va nadimlarni xush qilib, xazinadin nisor qildi”.⁵³

Hotamning qiyofasi, olijanob fazilatlari butun qissa davomida uning ishlari, odamlarga qilgan yaxshiliklari orqali namoyon bo‘lib boradi. Bundan tashqari uning xarakteri asar muallifi (roviy) so‘zlari hamda obrazlar tilidan aytilgan ta’rif va tavsiflar orqali yanada to‘laroq ifodalanadi. Masalan, muqaddimada Hotam haqida: “Kishi birla so‘zni muloyimatlik birla qilur erdi. Jamoli nihoyati xushro‘y erdi. To‘la kishilar yuziga oshiq erdi”, deyilsa, yettinchi safar hikoyasida Horisshohning nadimlari “Hotam mardi xushro‘y, xushxo‘y va shirinzabondur. Aning so‘zidan bizlarning dilimizg‘a xushvaqtliq va tozalik hosil bo‘ladur”, -deb baho beradi. Hatto dev o‘z podshohiga: “Odamzod maning qo‘lumbg‘a keldiki, ajab donoyi zamona va hakimi komil va mardi bomuruvvatdur”, - deb ta’riflaydi.

Agar e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, Hotam Toy shaxsiyatining mazkur uch xil qirradi: shoir Hotam (Hotim), saxovat timsoli bo‘lgan Hotam Toyi hamda xalq kitobining qahramoni Hotam tamoman boshqa-boshqa shaxslar bo‘lib ko‘rinsa-da, ular o‘rtasida muayyan bog‘liqliklar bor. Ularning barchasi ham ezgu fazilatlar bilan, aynan saxovat bilan tilga olinadi. Ularning barchasida farosat, muomala madaniyati, va badiiy fikrlash qobiliyati mavjud. Binobarin, ular aslida bitta tarixiy shaxs - Arabistonning Yaman yoxud Najd viloyatida yashagan Tay qabilasining

⁵³ Hotamnoma, - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 9-bet.

boshlig'i bo'lib, taxminan VI-VII asrlarda yashagan shoirdir. Biroq davrlar o'tishi natijasida u haqdagi rivoyatlarga boshqa asarlardagi gohida hayotiy, gohida fantastik elementlar ham qo'shilib ketganligini taxmin qilish mumkin.

Tadqiqotning dastlabki bobi asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin

Sharq adabiyotining eng mashhur timsollaridan biri, asosan saxovat, muruvvat va himmat timsoli bo'lib keladigan Hotami Toyi shaxsiyati, badiiy talqinlari haqida adabiyotshunoslikda anchagina ilmiy ma'lumot, fikr va qarashlar bildirilgan. Bu borada Y.E.Bertels, Yu.Salimov, A.Matg'oziyev, D.Salohiy va boshqa olimlarning ishlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Biroq qayd etish kerakki, mazkur ma'lumot va fikrlar, ayrim manbalar yuzasidan bildirilgan bo'lib, ko'p hollarda bir-birini takrorlaydi. Ular obraz va uning badiiy talqinlari haqida yaxlit tasavvur bera olmaydi. Qolaversa, tilga olingan ilmiy manbalarning aksariyati o'tgan asrning 60-80 yillar oralig'ida bajarilgan ishlar bo'lib, ularning g'oyaviy mundarijasida davr mafkurasining kuchli ta'siri seziladi.

Binobarin, turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotida Hotam Toy timsoli ishtirok etadigan she'riy va nasriy, lirik va epik asarlarni umumlashtirgan holda, mazkur obraz bilan aloqador bo'lgan badiiyat hodisalarini tadqiq etish masalasi hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotmagam muammolardandir.

Manbalarda Hotam ismiga ega bo'lgan bir necha shaxslar haqida ma'lumot bor. Xususan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Hotam ismli ikki mutasavvuf qayd etilgan bo'lib, ularning har ikkalasi birinchi tabaqa vakillari hamda VII-VIII asrlarda yashagan tasavvuf namoyandalaridir. Biroq ularning Hotam timsoli bilan bog'liqligini isbotlaydigan faktlarga hozircha ega emasmiz.

Ilmiy va badiiy manbalarda Hotam Toyi bilan bog'liq ma'lumotlar turlicha bo'lib tojik adabiyotshunosi Yu.Salimov ularni uch guruhga ajratadi.

VI-VII asrlarda yashagan arab shoiri Hotam Toyi haqidagi ma'lumotlar Abu Mansur as-saolibiyning "Yatimat ad-dahr" tazkirasida keltirilgan. Unda bir necha

shoirilar o'z asarlarida Hotam nomini aynan shoir sifatida tilga olganligi bilan birga, Abu Bakr Muhammad ibn Al-abbos Al-Xorazmiyning tazmin san'ati asosida yozilgan she'rlari orasida shoir Hotamning bir misrasiga qilingan tazmin ham mavjud.

I.Krachkovskiyning tadqiqotida tilga olingan, hamda devoni 1897-yilda nemis olimi F.Krenkov tomonidan Leypsigda nashr ettirilgan shoir Hotim at-Toyi ham aynan “Yatimat ad – dahr”da tilga olingan shoirdir.

XII-XVI asrlar mobaynida Hotam Toy timsolining sujetli asarlardagi ko'plab interpretatsiyalari maydonga keldi. Ularda bu timsol bilan bog'liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan. Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyjanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo'lib qatnashgan bo'lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o'taydi.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab o'tgan mashhur shoir, nosir, mutasavvuf va mutafakkir, voizlikda tengi yo'q kishi sifatida e'tirof etilgan Husayn Voiz Koshifiy ham “Risolayi Hotamiya” nomli asar yozganligi ma'lum. Biroq bu asar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmadik.

“Bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam” haqidagi ma'lumotlar manbai “Sarguzashti Hotam”, “Haft sayri Hotam Toy” yoxud “Hotamnoma” nomlari bilan fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan xalq qissasidir. Dastlab arab tilida vujudga kelgan bu qissa XVIII-XIX asrlarda fors-tojik va turkiy xalqlar, Hindistonning urdu tilida gaplashuvchi xalqlari orasida shuhrat qozonib, shu tillarga tarjima qilingan.

Shunday tarjimalardan biri “Hotamnoma” kitobidir. “Hotamnoma” XIX asr oxirlarida maydonga kelgan yoxud fors-tojik tilidan tarjima qilingan. Uning dastlabki nusxalaridan biri Muhammad Hasan Olim tomonidan forschadan tarjima qilingan bo'lib, hijriy 1311 (milodiy 1893-1894) yilda Mirzo Abdulqodir Oxun ismli kotib tomonidan ko'chirilgan.

Hotamning qiyofasi, olijanob fazilatlari butun qissa davomida uning ishlari, odamlarga qilgan yaxshiliklari orqali namoyon bo'lib boradi. Bundan tashqari uning xarakteri asar muallifi (roviy) so'zlari hamda obrazlar tilidan aytilgan ta'rif va tavsiflar orqali yanada to'laroq ifodalanadi.

Hotam Toy shaxsiyatining mazkur uch xil qirradi tamoman boshqa-boshqa shaxslar bo'lib ko'rinsa-da, mushtarak xususiyatlar ham ko'p. Binobarin, ular aslida bitta tarixiy shaxs - Arabistonning Yaman yoxud Najd viloyatida joylashgan Tay qabilasining boshlig'i bo'lib, taxminan VI-VII asrlarda yashagan shoir, deb aytishimiz uchun muayyan asoslar bor. Biroq davrlar o'tishi natijasida u haqdagi rivoyatlarga boshqa asarlardagi hayotiy va fantastik elementlar qo'shilib ketgan.

II BOB.

TURKIY VA FORS-TOJIK ADABIYOTIDA HOTAM TOY HAQIDAGI SUJETLAR

II.1. “Hotamnoma” asarining kompozitsiyasi, g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Inson paydo bo’lganidan buyon o’zgalarga yaxshilik qilish, insonparvarlik, mehr-muruvvat, himmat, xayr-ehson, shafqat, yetim-yesir, muhtoj va g’ariblarga yordam qilish, rahmdillik kabilar rivojlanib qadriyat darajasiga ko’tarilgan. Saxovat - saxiylik, qo’li ochiqlik, javonmardlikdir. Saxiylik deganda mehr-shafqat, savob ishlar, oliyhimmatlilik, vijdonlilik, nafsni tiyish, poklanish, muhtojlarga yordam berishni tushunamiz.

Qur’oni karimda aytilishicha, inson eng oliy zot, olamning sarvari qilib yaratilgan. Uning yaxshi yashashi, savob va xayrli ishlar qilishi, ehtiyoji uchun hamma harsa muhayyo etilgan. Lekin umr oqar daryodir, u bir zumda o’tib ketadi. Inson o’ziga berilgan qisqa davrda imkoniyatlardan oqilona foydalana olishi, vaqtini xayrli ishlarga sarflashga ulgurmog’i kerak.

Sharq adabiyotiga xos No’shiravon, Jamshid, Luqmon, Hotam kabi bir qator an’anaviy obrazlar borki, ularning har qaysisi ma’lum bir insoniy fazilatni ifodalash va targ’ib qilish uchun xizmat qiladi. Arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotidagi eng mashhur timsollardan biri ko’pincha saxovat va himmat timsoli bo’lib keladigan Hotam Toydir. Hotam Toy muruvvat sohibi. Ochlarni to’yg’izadi, yalang’ochlarni kiyim bilan ta’minlaydi. Mazlumlarni zolimlar qo’lidan qutqaradi. O’zbek tilining izohli lug’atida saxiy so’ziga quyidagicha izoh beriladi:

Saxiy (ar. qo’li ochiq, saxovatli, himmatli, oliyhimmat).

1. Hech kimdan narsasini ayamaydigan; hotam; hotamtoy; tanti.
2. Kishilardan o’z yordamini, xizmatini ayamaydigan, g’amxo’r; mehribon.

Saxiylik esa, hech kimdan narsasini, yaxshiligini ayamaslik; hotamlilik.

Saxovat (ar.-qo’li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik)

1. Baland himmatlilik, saxiylik. **Saxovat qo‘lini cho‘zmoq** - Himmat qilmoq: Yordam qo‘lini uzatsam. **Saxovatli** Saxovatini ayamaydigan, saxiy; hotamtoy, himmatli.

Hotam xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot tarixida saxiylik timsoli sifatida mashhurdir. Hatto uning nomi hozirgi o‘zbek tilida hotam, hotamtoy kabi sifat vazifasida qo‘llanib, “saxiy”, “qo‘li ochiq” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

“Hotamnoma” – folklor asari bo‘lib, uning muallifi va yaratilgan vaqti ma’lum emas. Asarda qayd qilinishicha, Hotam Muhammad (a.s.) zamonlaridan 150 yil avval vafot etgan. U Yamanning Tay qabilasidan bo‘lgan. Lekin Hotam boshidan kechirgan sarguzashtlar faqat Arabistonda emas, balki Hindiston, Eron, O‘rta Osiyo, Kavkaz, Xitoy kabi bir qancha mamlakatlarda bo‘lib o‘tadi.

Folklor bilan yozma adabiyot bir-biri bilan bevosita aloqadordir. Badiiy ijodning eng qadimgi namunasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi yozma badiiy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida juda katta rol o‘ynagan. Ba’zan ular orasidagi farq unchalik sezilmay ham qoladi. Bu hol, ayniqsa, xalq kitoblarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan ayrim folklor asarlari keyingi davrlarda kotiblar tomonidan yozma shaklga tushirilib kitob holiga keltirilgan, ular esa keyinchalik litografik va tipografik usulda ko‘paytirilgan. Kitob holiga keltirilgan folklor asarlari muayyan ortografik va stilistik normaga ega bo‘lishi, sujet va kompozitsiyaning qat’iy qolipga tushganligi bilan sof og‘zaki variantdan birmuncha farq qiladi, albatta. Bunday asarlar xalq kitoblari deb ataladi. “Hotamnoma” ham ana shunday asarlar jumlasiga kiradi.

“Hotamnoma” – sarguzasht qissa. Unda turli fantastik voqealar, g‘ayritabiiy hodisalar nasr yo‘li bilan bayon qilingan. Qissa sujeti Xorazm podshohining o‘g‘li Munirshoh va Barzax bozargonining qizi Husnbonu o‘rtasidagi sevgini tasvirlash asosiga qurilgan. Husnbonuning yettita shartini bajarishdan ojiz qolgan Munirshoh bosh olib, Yaman mamlakatining chegarasiga borib qoladi. Ov qilib yurgan Hotam unga duch kelib, mushkulini oson qilishga va’da beradi va yetti shartni bajarishga

otlanadi. Hotamning har qaysi shartni bajarish uchun chiqqan har bir safari alohida hikoyadan iborat.

“Hotamnoma” – yettita mustaqil hikoyadan tashkil topgan. Ammo har bir hikoya ichida yana bir qancha kichik-kichik hikoyalar ham berilgan. Bu jihatdan u “Ming bir kecha”, “Chor darvesh”, “Kalila va Dimna” kabi asarlar kompozitsiyasiga o‘xshab ketadi. “Hotamnoma”da saxiylik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sevgi va sadoqat, odamlar o‘rtasidagi do‘stlik va muruvvat, tinchlik va farovonlik kabi ezgu g‘oyalar o‘z ifodasini topgan.

Asarning bosh qahramoni Hotamdir. U qissaning boshidan oxirigacha ishtirok etadi.

Hotamning qiyofasi, olijanob fazilatlari butun qissa davomida uning ishlari, odamlarga qilgan yaxshiliklari orqali namoyon bo‘lib boradi. Bundan tashqari uning xarakteri asar muallifi (roviy) so‘zlari hamda obrazlar tilidan aytilgan ta’rif va tavsiflar orqali yanada to‘laroq ifodalanadi. Masalan, muqaddimada Hotam haqida: “Kishi birla so‘zni muloyimatlik birla qilur erdi. Jamoli nihoyati xushro‘y erdi. To‘la kishilar yuziga oshiq erdi” deyilsa, yettinchi safar hikoyasida Horisshohning nadimlari “Hotam mardi xushro‘y, xushxo‘y va shirinzabondur. Aning so‘zidan bizlarning dilimizg‘a xushvaqtliq va tozalik hosil bo‘ladur”, -deb baho beradi. Hatto dev o‘z podshohiga: “Odamzod maning qo‘lulg‘a keldiki, ajab donoyi zamona va hakimi komil va mardi bomuruvvatdur”, - deb ta’riflaydi.

Hotam – komil inson timsolining xalqona talqini. U inson aqli bovar qilmaydigan ishlarni bajarishga qodir. “Hotamnoma”da islom diniga qadar bo‘lgan voqealar bayon qilingan. Biroq keyingi bir necha asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelish jarayonida roviy va qissaxonlar tomonidan unga ayrim diniy motivlar va g‘oyalar ham qo‘shib yuborilgan.⁵⁴

Tay ammasining Adan ismli go‘zal qizini o‘z nikohiga oldi. Va undan bir o‘g‘il dunyoga keldi, otini Hotam qo‘ydi.

⁵⁴ Hotamnoma, - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 5-bet.

“Vaqtiki Tay hukamo va nadimlarni hozir qilib, tole’ini ko’rub bayon qildi. Hammalari shod bo’ldilar:

- Bu o’g’il podshoh bo’lib, saxovat birla qiyomatg’acha himmati oti qoladur.

Podshoh xush bo’lub, hukamo va nadimlarni xush qilib, xazinadin nisor qildi”.⁵⁵ Hotam tug’ilgan kuni Yaman va uning atrofida olti ming o’g’il tug’ildi. Olti ming enagaga bolalarni boqishni buyurdi. To’rt enaga tanlab olinib, Hotamni parvarish qilib, sut berishga tayinlandi. Hotam sut emishga unamadi. Tayga Hotam sut emmayapti degan xabar bordi. Bola nima uchun emmaydi deb ahli nujumdan so’radi:

- Bu o’g’il saxovat bilan olamda nomi mashhur bo’ladi deb javob berdilar. Hamma enagalar bir yerga yig’ilib, bolalarga sut berdilar, Hotam ham sut emdi. Hotamning odati shunday edi: u hech qachon yig’lamas edi, yolg’iz sut emmas edi va to’la uyqulamas edi. Vaqt o’tib sutdan ayrilib, taom yeydigan bo’ldi. Gohida Hotamni tashqariga olib chiqqanlarida, bir g’aribni ko’rsa, qo’li bilan “Bunga bir narsa bering” deb ishora qilardi. Ovqatlanish vaqtida unga taom keltirishsa, u olti ming bolalar bilan bir yerda o’tirib hammalari bilan birga taom yerdi.

Hotam o’n ikki yoshga kirdi. Ishi hamisha odamlarga saxovat qilish edi. Otasi beqiyos boylik jam qilgandi. Hotam sarf qilardi. Musofirlarni o’ziga do’st tutardi. Ba’zida ov qilib, hech bir jonivorni nayza yoki o’q bilan tutmas, dom bilan tutib, qo’yib yuborardi. Vahshiy hayvonlar va qushlarni ozod qilar edi. Hech qachon qo’pol so’zlamasdi. Kishilarga muloyimlik bilan muomala qilardi. Husni jamoli nihoyatda xushro’y edi. Barcha kishilar uning yuziga oshiq edi. Kimdir biror nimaga muhtoj bo’lsa, Hotam unga ortig’i bilan berardi. Zulmu sitamni hech kimga ravo ko’rmasdi.

Shahzoda Munirshoh hikoyatida, Xorazm podshohining o’g’li Munirshoh Shohoboddagi sohibjamol Husnbonu haqida eshitadi va bir musavvirni Husnbonuning suratini chizib kelish uchun Shohobodga yuboradi. Musavvir

⁵⁵ Hotamnoma, - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 9-bet.

Husnbonuning su'ratini chizib kelib, Munirshohga ko'rsatadi va rasmni ko'rib u hushidan ketadi. Munirshoh otasini ketayotganidan boxabar qilmay, Shohobodga Husnbonuni ko'rishga otlanadi. Ko'zlagan manziliga yetib boradi. Ammo, Husnbonuning yuzini ko'rolmaydi. Husnbonu Munirshohga yettita shartining birinchisini aytadi, bu shartlarni bajarishda unga Hotam Toy yordam beradi.

“Hotamnoma”dagi birinchi safar, “Bir marta ko'rдум, ikkinchi marta ko'rmoq havasim bor” deb nomlangan.

Hotam Husnbonu bilan xayrlashib, shahzoda Munirshohni Husnbonuning saroyiga qo'yib, o'zi shartni bajarishga ravona bo'ladi. Sahroda ketayotib, bir bo'ri va moda kiyikka duch keldi. Pichog'ini g'ilofidan chiqarib bir parcha o'zining go'sht sag'ridan bo'riga olib tashlaydi. Hotamdan bo'ri qayoqqa otlanganligini so'raganida, Husnbonuning savolini va o'sha savolga javob topishga ketayotganligini, lekin qaysi tomonga borish kerakligini bilmasligini aytadi. Bo'ri unga dashti Huvaydoga borish uchun yo'l ko'rsatadi. Hotam ozroq yo'l bosib kesilgan joyini og'rig'idan bir daraxtning tagiga yumalaydi. O'sha daraxtning tagini bir juft shag'ol makon qilgan va ular ovqat izlab ketgandilar. Ikkala shag'ol qaytib kelgach Hotamning muruvvat va saxovati haqida suhbatlashadilar. Shag'ol Hotamning kesilgan soniga agar erkak to'vus boshining mag'zini bog'lab qo'ysa, bir soatda sihat topishini va moda shag'ol unga yetti kecha kunduz xabardor bo'lib tursa, o'sha jonivorning boshini Mozandarondan olib kelishini aytadi va va'dasini ustidan chiqadi. Hotamning soniga o'sha jonivorning boshini bog'lab qo'yadilar. Hotamning dardi bartaraf bo'ldi. Shag'ollarga bu ehsonlari uchun nima yaxshilik qilib javob qaytarishini so'raydi va shag'ollar bunga javoban bolalarini har yil vahshiy hayvonlar yeb ketishini agar iloji bo'lsa, o'shalarining yomonliklaridan xalos qilishini aytadi. Hotam har ikki jargonlarni tutib, ularni bog'ladi. Ularni o'sha yerda qoldirib, moda shag'ol bilan xayrlashib, ikkinchi shag'ol bilan Huvaydoga yo'l oladi. Hotam dashti Huvaydoga yetib borib savolning javobini topguncha ko'pgina og'ir mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Husnbonuning saroyiga qaytadi va savolning javobini aytadi. Javob quyidagicha edi: “Bir piri

mard dashti Huvaydoda nozanin tilsimlarini ko‘rub, firifta⁵⁶ bo‘lub, sahroda ovoz qiladur: “Bir martaba ko‘rdum, ikkinchi martaba ko‘rmakka havasim bor”.

Oncha tilsimning haqiqati va ul nozaninki, bor erdi, bir-bir hammasini zohir ko‘rgatib, aytiki:

- Ul ovozni emdi kishi eshitmaydur: man ul pirni tilsimotga yetkurdim”.⁵⁷

Bu hikoyadan qisqacha shunday xulosaga kelish mumkin:

Hotam bir qancha sinovlardan o‘tgandan so‘ng, dashti Huvaydoda bir pirni uchratadi va piring sahroda nola (“Bir marta ko‘rdim ikkinchi marta ko‘rishga havasim bor”) sini eshitadi hamda pirga o‘sha sohibjamolni oldiga eltuvchi yo‘lni ko‘rsatadi.

“Hotamnoma”dagi ikkinchi safar, “O‘bdanliq qilg‘in - daryog‘a tashla” nomli sarlavha ostida hikoyat keltirilgan.

Bu hikoyatning qisqacha sujeti quyidagicha: Hotam bir qancha kishilarning mushkulini oson qilgach, bir baland imoratni ko‘radi. Imoratning darvozasiga “O‘bdanliq qil - daryog‘a tashlag‘il” deb bitilgandi. O‘sha imoratdan hodimlar chiqib Hotamni ichkariga olib kiradilar, u ko‘rdiki, bir kishi yuz yil umr ko‘rgan va taxtning tepasida o‘tiribdi. Mezbon Hotamni ko‘rib, taxtdan tushib, izzat-ikrom bilan kutib oladi. Hotamni mehmon qiladi. Hotam u pirdan nima uchun eshigining tepasiga “O‘bdanliq qil - daryog‘a tashlag‘il” deb yozib qo‘yganligini so‘raydi. Pir shunday javob beradi:

“Men avval yo‘lto‘sar edim. Odamlarning matolarini o‘g‘irlardim, ba’zida mardikorlik bilan kun kechirardim. Lekin har kuni ikki pishgan non, yog‘liq, shakarga ilashtirib, daryoga tashlardim. Ancha vaqtim shu zaylda o‘tdi. Bir kuni kasal bo‘ldim, jonim uzildi. Bir kishi keldi, meni qo‘limdan tutib do‘zax yaqiniga eltti. “Seni joying shu yer” deb meni do‘zaxga havola qildilar. To‘satdan ikki kishi kelib, meni ikki qo‘limni tutib torttilar va “Bizlar bu kishini do‘zaxga yuborishingga qo‘ymaymiz, buning joyi jannatdadir” dedilar. Ular meni

⁵⁶ Firifta (f) – aldangan, maftun bo‘lgan.

⁵⁷ Hotamnoma. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. 44-bet.

do‘zaxdan tortib, jannatga olib keldilar. Bir pir ko‘rib: “Buni nima uchun olib keldingizlar? Hali uning yuz yil umri bor” dedi. Shundan so‘ng, ikkovlari meni uyimga keltirdilar. Ular: “Bizlar sen baliqlarga bergan ikki nonmiz” dedilar. So‘ng hushimga keldim, tangriga shukr keltirib, barcha gunohlarimga tavba qildim.

Bir kuni ikki nonni daryoga tashlagani borgan edim, suvdan yuz tillo chiqdi, men tillolarni oldim va shaharning oxiriga chiqib jar soldimki, “Kimnidir narsasi suvga tushib ketgan bo‘lsa, kelib mendan oladilar”. Javob bermadilar. Daryoga borib yana o‘sha ishimni takrorladim, nonni tashladim, yana yuz tillo daryodan chiqdi. Uni olib uyimga keltirib omonat sifatida olib qo‘ydim, balki egasi topilib qolar. Xuddi shunday o‘n kun daryodan tillo olib keldim va olib qo‘ydim. O‘n birinchi kechasi tushimda shunday ovoz eshittim: “U tillolar senga atalgan, ularni olgin va sarf qilgin”. Uyqudan uyg‘onib shukr qildim. O‘sha oltinlarni sarf qilib, bu imoratni qurdirdim va darvozaga “Yaxshilik qilib, daryog‘a tashlagin”, deb yozdirdim.

Hotam pir bilan xayrlashib, ikki yil-u olti oy-u o‘n yetti kunda Shohobodga Husnbonuning saroyiga boradi va savolning javobini yuqoridagicha hikoya qilib beradi.

“Hotamnoma” asaridagi uchinchi safar, “Yomonliq qilmag‘in, agar qilsang, ul yomonliqni topasan” deb nomlangan. Bu hikoyaning sujeti quyidagicha: Hotam kishilarga yaxshilik qilishda davom etadi va Shahri Ahmarga bormoqchiligini bir malikaga aytadi. Malikaning hukmi bilan bir kecha kunduzda parilar Hotamni taxtga o‘tqizib manzilga yetkizadilar. Hotam o‘sha joyda bir kishining “Kishiga yomonliq qilma, agar qilsang, yomonliqni topasan” degan ovozini eshitadi va parilarga meni shu joyda qoldiringlar, ishim bor deydi hamda parilar Hotam bilan xayrlashib ketadilar. Hotam borib qarasaki, daraxtning tubidan ovoz keladi. Ko‘rdiki, bir qari kishini qafasga solib, daraxtning shoxiga osib qo‘yilgan va o‘sha kishining ovozini eshitgan ekan.

Hotam pirdan nima uchun qafasga solib qo‘yganlarini so‘raydi. Pir agar mushkulini bajarsa, shundagina sababini bayon qilishini aytadi. Hotam so‘zingni albatta bajo keltiraman deb qasam ichadi.

Pir ismi Hamro ekanligini, savdogarlik qilganini, otasi uning balog‘atga yetgan vaqtida daryo tijorati bilan ketganida o‘rniga o‘g‘li (pir)ni qo‘yib ketganligini va topgan pulini befoyda ishlarga sarflaganligini aytadi. Otasi o‘sha safarda o‘lganligi va endi qanday qilib kun ko‘rish dardida yurgan vaqtida bir kishini bozorda baland ovozda “Har kimning uyida ko‘milgan dunyo bo‘lsa, topib beraman, ammo, topilgan xazinani to‘rtidan bir hissasini menga berasiz” deganini eshitadi. O‘sha yigit piring uyidan xazinani topgach, pir aytgan hissani emas, ozroq oltin berib, yigitni urib uyidan xafa qilib chiqarib yuboradi.

Oradan biroz muddat o‘tib, yigit pirnikiga keladi, ikkovlari qaytadan do‘stlashadilar va yigitdan pir qanday qilib qayerda xazina borligini bilish mumkinligini so‘raganda, yigit pirga “agar xohlasang senga ham o‘rgataman” deb aldab sahroga olib boradi. Sahroda bir daraxtning tagida qafas bor edi qafasga pirni kiritib, yigit kistasidan surma chiqarib piring ko‘ziga surtadi va uning ko‘zi o‘sha zahotiyoq ko‘r bo‘ladi. Pir yigitdan muhrani nima qilding deb so‘raganida, va‘dani bajarmaslikning jazosi shunday bo‘ladi deb javob beradi va “Agar yana ko‘zing ko‘rishini istasang, bu qafasda o‘tirgin va “Kishiga yomonliq qilmag‘il agar qilsang, ul yomonliqni topasan”degan so‘zni aytgin. Bir kuni bir yigit keladi. Humro sahrosida giyoh bor, u giyohni nur deb ataydilar. Agar o‘sha giyohni olib kelib ko‘zingga surtsa, ikkala ko‘zing ham ravshan bo‘ladi deydi. O‘ttiz yil davomida hech kim piring dardiga darmon bo‘lmaydi, Hotam unga giyohni olib keladi va uning ko‘zlari yana ko‘ra boshlaydi. Hotam Husnbonuga savolining javobi tariqasida yuqoridagi hikoyani bayon qiladi. Husnbonudan keyingi savolini aytishini so‘raydi.

“Hotamnoma”dagi to‘rtinchi safar,” Rost aytquchig‘a hamisha rohat oldidadur” deb nomlangan bo‘lib, bu hikoyada ham Hotam kishilarga muruvvat

qo‘lini cho‘zadi, ularga yaxshilik ulashadi va savolning javobini Husnbonuga bayon qiladi.

“Hotamnoma”dagi beshinchi safar, “Bor emishkim jahonda ko‘hi nido, nega bul ism erur anga paydo?” nomli sarlavha ostida beriladi. Hikoya qilinishicha, Hotam savolning javobini izlab bir qancha muddat sahro-yu tog‘larni kezadi. Safari davomida uning chap qo‘li nuqra bo‘lib qolganini va bir ariqqa qo‘lini solganda yana o‘z holiga qaytganini, ammo, tirnog‘i nuqra bo‘lib qolganini, yana bir nishona sifatida daryoyi zarrindan suv ichganda to‘rtta tishi tillodan bo‘lib qolganini hamda ikki javonmard unga bergan uch javohirni ko‘rsatadi. Husnbonu ham javob xuddi shunday ekanligini eshitgandi, ammo, endi bunga ishonchi komil bo‘ladi. Hotamga ofarinlar aytib, shahzoda Munirshoh ikkovlari taom tanovvul qiladilar. Ikki kun dam olgach, oltinchi savolni Husnbonudan eshitib, javobini topish uchun yo‘lga chiqadi.

“Hotamnoma”dagi oltinchi safar, “Mug‘robi tuxumidek marvaridning juftini qidirib” sarlavhasi ostida berilgan. Bu safardan Husnbonuning ko‘zlangan maqsadi, o‘zida mavjud marvaridning juftini Hotam topib kelishi kerak edi. Hotam o‘sha javohirni Mohyor Sulaymonning yurtidan topdi, ammo, shoh marvaridni qiziga qo‘shib Hotamga hadya qiladi. Hotam esa malikani shahzoda Tumoniya berib, Husnbonuning yurtiga Tumoniya lashkarlari hamrohligida qaytadi. Hotam Husnbonuga kistasidan marvaridni chiqarib beradi. Shahzoda Munirshohga “Agar shu safardan salomat qaytsa, Husnbonuni sizga havola qilaman va va‘damni bajargan bolaman” deydi, hamda yettinchi safarga otlanadi.

“Hotamnoma”dagi yettinchi safar. “Hammomi bodgardning siri” deb nomlangan. Bu hikoyada Hotam shunday tilsimotga borib qoladiki, unda kamonda uchta o‘q bilan to‘tini nishonga olishi kerak edi. Agar to‘tini nishonga ololmasa, yurtiga qaytib ketolmasligi va u tilsimotdagi toshga aylangan kishilar o‘z holiga qaytmasliklari Hotamga ayon bo‘ladi. Hotam birinchi va ikkinchi o‘qni otadi, ammo, to‘tini nishonga ololmaydi, shunda “Ey Hotam, endi o‘lmoq yaqin, yana bir o‘qni otgin” deb ichida o‘ylaydi va ko‘zini chirt yumib, tavakkal qilib o‘qni to‘ti

tomonga otadi. O‘q to‘tiga tegadi va to‘ti qafasdan chiqib yiqiladi. Shu vaqt olam qorong‘u bo‘ladi. Somon Idrak Hotamni mehmon qilgach, hammomi bodgard sindi deydi. Hotam Husnbonuning yurtiga qaytib, unga safarda ko‘rgan-bilganlarini bayon qildi hamda kistasidan olmosni chiqarib beradi. Hotam sening shartlaringni bajardim, endi sen ham va‘dangni bajar, men o‘zim uchun shuncha mashaqqat chekmadim, bularning barchasini Shahzoda Munirshoh uchun qildim deydi. Husnbonu Hotamga javoban endi senikiman, nima qilsang ham seni ixtiyoringdaman deydi.

Shahzoda Munirshohni taxtga o‘tqizdilar va rasmni chizdilar. Munirshoh Husnbonuning rasmini ko‘rib, o‘zidan ketadi. O‘n ikki yil, yetti oy, to‘qqiz kunda yetti sirni Hotam tamoman bajardi. Munirshoh Hotamni oyog‘iga yiqildi, Hotam uni quchoqlab, tabrikladi. Bir necha kundan keyin Yamanga yetdi. Ota-onasining oyog‘ini quchdi. Taxtni otasi Hotamga topshirdi. Hotam qolgan umrini malikai Zarrinposh bilan o‘tkazadi. Yettinchi hikoyatdagi Munirshohning Husnbonuning rasmini korib, hushidan ketish tasviri Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini eslatadi. Dostonda ham Farhod Shirinning rasmini ko‘rib, hushidan ketishi tasviri berilgan.

Fors-tojik tilidagi “Sarguzashti Hotam”da har bir bob mazmuni bitta hikmatli baytdagi masala bilan bog‘langan yoki bir bayt bir bob mazmunini xulosalaydi. “Hotamnoma”da esa, uning o‘rniga hikmat yoki ibora sarlavha o‘rnida keltirilgan. Biroq ular asliyatda bayt shaklida bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Masalan, beshinchi safar:

Bor emishkim jahonda ko‘hi nido,

Nega bul ism erur anga paydo? – sarlavhasi bilan berilgan.

“Hotamnoma”da oz miqdorda bo‘lsa-da she’riy parchalar ham uchraydi. Ular asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, Hotamning to‘rtinchi safarida shunday parcha bor: “Oliy jashn (ziyofat – X.O.) tartib berdilarkim, agar parilar ko‘rsalar, rashk aylar erdilar:

Qildilar turfa majlisoro,
Ettilar boda nishobin bolo.
O'rtada raqs urub bozigar,
Necha gulruxi ajab, hama dilbar...

Bu ham mazkur asarning “Xalq kitoblari”ga xos bo’lgan barcha badiiy xususiyatlarni o’zida mujassam etganligini ko’rsatadi.

Xullas, xalq kitoblari uslubida yaratilgan “Hotamnoma” sarguzasht-didaktik nasrning go’zal namunasi bo’lib, turkiy adabiyotning o’ziga xos manbalaridandir. U Hotam Toy haqidagi xalq orasida mavjud bo’lgan tasavvurlarni, shuningdek, xalqning komil inson haqidagi o’y-orzularini o’zidamujassam etgan asardir. Mazkur asar yaxlit kitob holida XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo’lsa-da, undagi sujrt va obrazlar, voqeliklar qadimiy ildizlarga ega.

II.2. She’riy va nasriy hikoyatlarda Hotam Toy timsoli.

Fors-tojik va turkiy adabiyotning uzoq va boy tarixida yaratilgan son-sanoqsiz badiiy timsollar orasida saxovat timsoli bo’lgan Hotam Toy ham alohida o’ringa ega. Xususan, XII-XVI asrlar mobaynida Hotam Toy timsolining sujetli asarlardagi ko’plab interpretatsiyalari maydonga keldi. Ularda mazkur timsol bilan bog’liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan bo’lib, ular asosan quyidagilar:

- Hotam Toy bilan o’tinchi (yantoq orqalagan) cholning suhbatiga asoslangan sujet (Sa’diyning “Guliston”, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”, Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlarida);
- Hotamni sinash uchun eng sevimli va qimmatbaho otini so’ragan shoh haqidagi sujet (Sa’diyning “Bo’ston”, Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul axbor” dostonlari);
- Hotamno o’ldirmoqchi bo’lgan podshoh yoki yigit haqidagi sujet (Sa’diyning “Bo’ston”, Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul axbor” dostonlari).

- Hotam Toyning o'limdan keyin ham musofirlarni tuya go'shti bilan mehmon qilishi haqidagi sujet (Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor", Mavlono Haydarning "Maxzan ul-asror").

Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning boy hayotiy tajriba asosida yaratilgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari olamshumul shuhratga ega.

"Guliston" asarining ikkinchi bobi "Darveshlarning axloqi bayonidadur" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobdagi 47-hikoyatda ham Hotam Toy obrazi qatnashgan. Hikoyat hajman kichik bo'lib, unda ikki bayt she'riy matn ham keltiriladi va shu baytlar orqali hikoyat yanada ta'sirchanlik va jozibadorlik kasb etadi.

Bir hakimga savol ayladilarki, saxovat va shijoatdin qaysi biri yaxshiroqdur? Aydi: "Ul kishiningki saxovati bordur, shijoatg'a hojati yo'qdur". Bayt:

Bitik go'ri Bahrom Go'ra budur:

"Karam ilki yaxshi, ul qo'ldinki, zor".

Jahonda qolmadi Toyi Hotamiy vale doyim,

Qolib baland ot-yaxshilik bila mashhur.

Ya'ni hikoyatda yozilishicha, bir hakimga "saxovat va shijoatdan qaysi biri yaxshiroq" – deb savol beradilar. "Kimda saxovat bo'lsa, unga shijoatning hojati yo'q" deb javob beradi. Yuqorida qayd etilgan baytning mazmuni quyidagicha: Bahrom Go'rning qabrtoshida shunday bitik bor: Hotam Toy jahonda qolmadi, biroq karam qo'lini doim cho'zgani va insonlarga yaxshilik qilgani bilan nomi qoldi. Ko'rinib turibdiki, saxovatli kishining o'zgalarga saxovat ko'rsatishi yoki xayru - ehson qilishi uchun hech qanday shijoatning keragi yo'q. U o'z xatti - harakatlari bilan saxovatli kishi ekanligini isbot qiladi. Birovga qilgan yaxshiliklarini nimaningdir evaziga hadya etmaydi va boshqalardan o'zi qilgan yaxshiliklarini qaytarishlaridan umidvor ham bo'lmaydi. Zero, saxovatli kishi aynan shu fazilatlari bilan baxil insonlardan ajralib turadi.

“Guliston” asarining uchinchi bobi ya’ni “Qanoatda bo’lg’on fazilat bayonidadur” nomli bobida ham Hotam Toy obrazi qatnashgan hikoyat mavjud bo’lib, u haqda keying bobda to’xtalamiz.

Shayx Sa’diyning “Bo’ston” asarida ham Hotam Toy haqida hikoyatlar keltirilgan. Dastlabki hikoyat 25 baytni tashkil etgan:

Eshittimki, Hotamda bir timqaro
Oti bor ekan, uchquru bebaho.
Momoguldirakdek ekan kishnashi,
Chaqindan o‘zar unga mingan kishi.
Chopar tog‘u sahroga u ter sochib,
Bulut, derding, o‘tganda og‘zin ochib.
U seldek borar cho‘lda borgan sayin,
Qolar chang kabi yel ham undan keyin.
Shaharlarda Hotamni el maqtashar,
Uning madhi sultoni Rumga yetar.
Saxiylikda hech tengi yo‘q derdilar,
Uchar otini maqtashar erdilar.
Oti – kema daryoda, cho‘l ichra-sel,
U uchganda shunqor ucholmas dadil.
Dedi shunda dono vaziriga shoh:
“Uyatdir adovat qilish begunoh.
Tilay zotli tulporini bir safar,
Muruvvat-la topshirsa Hotam agar,
Bilurman, saxiydir, agar rad qilur,
Dovul bongidek shuhrati puch erur”.
Ilmli bir oqilni Tayga shu on,
Qo‘shib o‘n kishi birla qildi ravon.
Bulut yosh to‘kardi yer o‘lgansimon,
Shamol qaytadan keltirar erdi jon.

Yurib yetdi Hotam uyiga alar,
Degil, suvga yetdi yurib tashnalar.
So'yib otu qandu shakar to'kdi u,
Etaklab to'la nuqra⁵⁸ -zar to'kdi u.
Tunab ul kecha, ertasi ertalab
Ular etdilar otni undan talab.
Parishonlik o'rtardi Hotam dilin,
U hasrat tishi birla tishlab qo'lin,
Der erdi: "Ayo oqili zufunun⁵⁹,
Burunroq menga aytmading ne uchun?
Men ul uchqur otimni so'ygan edim,
Pishirgan edim, sizga qo'ygan edim.
Kecha bo'ldi-ku shuncha bo'ron-shamol,
Borish qo'raga⁶⁰ bo'ldi amrimahol.
Qo'limda yo'q erdi shu otdan bo'lak,
Shuni noiloj kecha etdim gazak.
Menimcha muruvvat emasdi shu on,
Qarab tursam-u, yotsa och mehmon.
Saxiylik-la dunyoda qolsin otim,
Agar ketsa ham, mayli, shunday otim".
Jo'natdi berib molu zar shul nafas,
Tabiiy erur xulqu, kasbiy emas.
Yetib Rumga Tay mardidan xushxabar,
Dedi shah: "Yasha! Ofarin! Top zafar!"
Shu birlan tugal dema Hotam ishin,
Eshit-yaxshiroq qissasin aytayin.

⁵⁸ Nuqra-kumush.

⁵⁹ Zufunun-oqil, donishmand, ilmu hunar sohibi.

⁶⁰ Qo'ra-chorva mollari qamab qo'yiladigan qo'ton, o'tar.

Shu bilan Hotamning ishi tugadi deb o‘ylama, endi bundan ham yaxshiroq qissasini aytaman, deb birinchi hikoyat yakunlanadi va Hotamtoy haqida navbatdagi hikoyat keltiriladi.

Bu hikoyat sujetining mazmuni quyidagicha:

Bir kishidan eshitgan edim, Yaman shahrida qaysi shoh bor ekan, shohning nomini unutdim. U jahon shohlaridan g‘olib ekan, saxiylik maqomida ham nom qozongan ekan. Uni ehson buluti desang ham bo‘larkan, u har kuni yomg‘ircha zar socharkan. Shohga birov Hotam nomini tilga olsa, uning rashki boshini aylantirarkan. Shoh shunday derdi: “Na taxtu na toji bor, Nechun unda bor bunchalik e’tibor?”. Xalqni yig‘ib shohona bazm qiladi va xalqni xursand qiladi. Hotamning ehsonidan birov og‘iz ochsa, boshqasi ofarin derdi hayrat bilan.

Hasad-la dedi shah birovga shu on:

“Olib kel uning boshini beomon!

Zamonamda Hotam tirik bor ekan,

Tanilmayman elda saxiylik bilan”.

Jallod Hotamni beomon o‘dirish uchun Tay qabilasi tomon jo‘nab ketdi. Yo‘lda bir navqiron, himmati yuzidan ayon bo‘lib turgan kishiga duch keldi. Shirin so‘zli, dono yigit mehmonni hurmat bilan olib ketdi. Uni g‘arazli dilini izzatu ehtirom bilan lutf aylab, rom qildi. Ertalab turib mehmonni oyog‘u qo‘lidan o‘pib, “besh-o‘n kun ketma, shu yerda yur” dedi.

Mehmon Hotamga muhim ishi borligini, bu yerda uzoq qololmasligini aytadi. Shunda Hotam “Ishingni menga ayt, men bilay qanaqa ishligini, senga hamroh bo‘lib yordam beray” deydi. Mehmon unga javoban: “qulog‘ingni tut, mard yigit sirni saqlashini bilaman, yurtingda dono Hotam degan bor ekan taniysanmi? Yaman shohiga uning boshi kerak emish, lekin Hotam shohga nima yomonlik qilganini bilmayman. Agar uning makonini menga bugun ko‘rsatsang, seni menga qilgan do‘stliging shudir” deydi.

Kulib u yigit aytdi: “Hotam –o‘zim,

Mana, kes boshim-chin erur bu so‘zim.

Agar tong otib qolsa, bo'lg'ay yomon,
Murodga yetolmay, ko'rarsan ziyon".

Hotam saxiylik bilan boshini tutdi, buni eshitib, yigitning joni qiynaldi. O'zini yerga tashlab ming o'grildi, Hotamni qo'l-oyog'ini o'pib, unga termuldi. Qo'lidagi shamshirini yerga otib, qo'lini ko'ksiga qo'yib fig'on ayladi. "Agar senga zarracha ziyon yetkizishni xohlasam mardlarning oldida mushtipar bo'lay" deb, uni quchoqlab ko'zlaridan o'pib yamanga jo'nab ketdi. Podshoh uning yuziga qarab hech ish qilolmaganligini anglab shunday dedi: "Nega uning boshini uzib, bog'ichingga osib kelmading? Biror nomdor senga hujum qildimi? Unga kuching yetmadimi, nima sir bor bunda". Shu dam jallod yerni o'pib, boshini xam qilib shohni duo qildi.

Dedi: "Men uni ko'rdim-odam ekan,
Butun yaxshilik birla Hotam ekan!
Ko'rib himmatu aqlin etdim pisand,
Ekan mardlikda u mendan baland.
Egildim uning himmatu lutfidan,
Boshim kesdi ehson qilichi bilan".
Bayot etdi u hamma ko'rganlarin,
Dedi shoh Tay avlodiga ofarin!

Bu hikoyatda Hotam Toyning komil insonga xos bo'lgan fazilatlaridan saxovatlilik, oliyhimmatlik bilan bilan birga mard, jasur, bir so'zli inson ekanligi she'riy va nasriy yo'l bilan yoritib berilgan.

Sa'diy hikoyatlarining o'ziga xos badiiy ishlanmasi Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" asarida uchraydi. Qosimiy asardagi "So'z boshi"lardan birida karam va saxovat haqida so'z yuritib, jumladan yozadi:

Kimga karam bo'lsa azaldin nasib,
Andin emas judu saxovat g'arib.
Har na nasib etsa anga biru bor,
Yo'qsuzu o'qsuzga qilur ul nisor.

Xullas, inson tabiatning eng ulug‘ va qudratli zoti ekan, uning aql-zakovati esa buyuk bir kuchdir. Ana shu kuchdan inson qanchalik to‘g‘ri foydalansa, unga shunchalik baxt-saodat hamroh bo‘ladi. Insonning mehnati bilan vujudga kelgan samaralardan butun mavjudot va maxluqot olami uning himmati tufayli bahramand bo‘lmog‘i kerak, - degan xulosa kelib chiqadi:

Kimki saxovat bila odat qilur,
Ertavu kech kasbi saodat qilur.
Olami ma’noda bo‘lur ul amir
Kimki, o‘zin ko‘rdi bu yo‘lda faqir...⁶¹

So‘ngra so‘z boshida bayon etilgan fikrni chuqurroq yoritish va o‘quvchiga ishonarli dalil qilib keltirish uchun quyidagi mazmundagi hikoya keltiriladi:

Yaman podshohi o‘zining butun molu dunyosini xalqning farovonligi yo‘lida sarf etadi. Raiyat uning bu ishidan behad xursand bo‘ladi. Podshoh o‘zidan ham saxovatliroq kishi Hotamtoy ekanligidan xabar topgach, hasad qilib, undan intiqom olish rejasiga kirishadi:

Aytsa kishi Hotami Toyi so‘zin,
Ko‘rar edi yuz ulush ortiq o‘zin.
Aytur edi Hotami Tay kim bo‘lur?
Men borida da‘viyi ehson qilur?
Yo‘qtur aningdek anga bir molu ganj,
Tortsa aning yo‘lida ul dardu ranj.
Berur edi elga karam dodini,
Qilsa tay ul Hotami Toy odini,
Fikr qilib ko‘rdi bu ishini yirog‘,
Mardi fidoyig‘a berib bir ulog‘.
Toki borib qilsa adam Hotami,
Bo‘lsa o‘zi lufu karam hotami...⁶²

⁶¹ Majma‘ ul-axbor,

⁶² Majma‘ ul-axbor,

Hotamni o'ldirish uchun shohga yollangan bir fidoyi yigit maqsad yo'liga tushadi. U Tay qabilasiga yetib borganida uning qarshisidan bir kishi chiqib keladi. U kishi yigitni beqiyos lutfu karam bilan kutib oladi va uni mehmonga taklif etadi. Ziyofat chog'da mehmon bu yurtga karam va saxovat bobida shuhrati ketgan Hotam Toyini qatl etgani kelganligini bayon etadi.

So'rdiki, sen kimsanu oding nedur,
Ushbu qabilada sifoting nedur.
Aydi javobinda o'shul nekmard,
Koni saxovu karamu ahli dard
Kim, muni so'rmoqqa muroding nedur
Basta ishing bori kushoding nedur.
Aylayin jon bila hosil ani,
Mahrami sirring agar etsang mani[13.45]...⁶³

Mezbon Hotam Toyning o'zi bo'lib, yigit bundan bexabar edi. Mehmonning bu so'zlariga u shunday javob beradi:

Aydi anga Hotami Toyi: vayig',
Bobi muruvvatdin emas jon darig'.
Har naki ko'nglung tilasa andoq et,
Qilma tavaqquf boshim kes-da ket.
Turma dame yo'lg'a qadam qo'y bu dam,
Bilsa xaloyiq senga etkay alam.

Mehmon bu so'zni eshitib Hotam Toyning karam va saxovat bobida haqiqatda tengi yo'qligiga amin bo'ladi. Yovuz niyatidan qaytib xijolat bilan shunday deydi:

Lutfu saxovatda sazovarsen,
Xalq degancha yuz ulush borsen.
Oz bo'yinga lutfu karamning to'ni,

⁶³ Qosimxonov B, Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. – T.: Fan, 1987. 46-49 sah.

Bu ish uchun tangri yaratdi seni.
Gar karaming qildi mani sharmsor,
Qo'yma muningdek mani majruhu zor,
Tangri uchun ayla senichingni sof,
Xo'rdaye keldi esa ayla maof.
Siyna basiyna qo'yibon dil badil
Mardi juvonmard anga qildi behil.
Yo'lg'a qadam qo'ydi qilib xayrobod,
Bordi Yaman mulkina xushnudu shod,
Yetdi eson xonu begi qoshina,
Aydi nakim tushib edi boshina,
Qildi duovu sifaati oli Tay,
Aydiki: Ey vorisi Jamshidu Kay.
Hotami Toyiga tegar lofi kud,
Judg'a qoshidaaning ne vujud.
Munsif o'lib podshahi mulki zod,
Qildi duo birla bani Tayni yod...⁶⁴

Mehmon Hotam Toydan uzr so'raydi, u bilan xayrlashib, o'z yurtiga qaytib bo'lgan voqeani shohga so'zlab beradi. Shoh ham bu voqeadan hayratda qoladi va o'zining yovuz niyatidan aziyat chekadi.⁶⁵

Hotam Toy timsolining o'ziga xos talqini Xoju Kirmoniyning "Ravzat ul-anvor" dostonida ham mavjud. Hijriy 743 (1342-43) yilda Shamsiddin Muhammad Soinga bag'ishlab yozilgan mazkur asardagi 14-maqolat karam-saxovat haqida ("Dar bayoni karam") bo'lib, Xoju ilk marotaba xamsalarning ilk dostonlari tarkibida bu mavzuni alohida maqolat doirasida muhokama etadi. Maqolatga ilova qilingan hikoyat "Hikoyati musofiri sohibdil ki bo karvon bar turbati Hotam nuzul kard" ("Ko'ngil egasi bo'lgan musofirning karvon ahli bilan birga Hotam

⁶⁴ Majma' ul-axbor,

⁶⁵ Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari, - Toshkent: Fan, 1987 . 49-bet.

dafinasiga kirganligi haqida hikoyat”) deb nomlangan bo’lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Hotami Toyi chu birun shud zi hay,
Nomai umrash zi qazo gasht tay.

Mazmuni: Hotami Toy tiriklar davrasidan chiqdi, umr nomasi qazo hukmiga bo’ysundi, ya’ni olamni tark etdi.

Hikoyat hajman ancha katta (46 bayt) bo’lib, unda dastlab Hotami Toy shaxsiyati, fazilatlarini sharaflanadi, umrning o’tkinchiligi haqida mulohaza yuritiladi. Sujetning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Bir karvon Hotam dafinasi oldidan o’tayotib, karvon ahlidan bir kishi dafinaga kiradi va Hotam ruhiga murojaat etib, undan ziyorat qilishni so’raydi. Shu lahzada karvondagi eng semiz tuyalardan biri yiqilib, xirillay boshlaydi. Uni so’yishdan boshqa chora qolmaydi. Tuyani so’yib, karvon ahlini ziyofat qiladilar. Shunda boyagi kishi Hotamga ta’na qilib, uni o’z moli bilan ziyofat qilganlikda ayblaydi. Ertasi kuni tong sahardan bir arab tuya yetalab keladi. Bu tuya kecha so’yilgan tuya ikki tomchi suvdek o’xshash edi. Tuyani olib kelgan kishi o’zini tanishtirib, Hotam avlodidan ekanligi, shu kecha Hotam uning tushiga kirib bir tuyani falon joyga olib borishni tayinlaganligini aytadi. Hotam karvon ahliga berilishi lozim bo’lgan tuyaning belgilarini aniq ta’riflagan edi. Hotamga ta’na qilgan kishi hayratga tushib, o’z ishidan pushaymon qiladi.

Mazkur hikoyat biroz qisqargan (22 bayt) holda Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonida ham keltirilgan:

Qofilaye barri arabdin magar,
Qildi bani Toy hashamina guzar.
Yo’l oziqib o’tkali qo’rqushtilar,
Hotami Toy turbatina tushdilar.
Qofilaning o’rtasidin bir fuzul,
Dedi: - Kim-ey Hotami sohib qabul.
Dunyoda nomus ila qilding maosh,

Yaxshi oting bo'ldi karam birla fosh.
Chun sanga mehmonbiz, ey sohib karam,
Har nechuk et, bizni og'irla bu dam.
So'zladiyu turbatina tikdi ko'z,
Rost hanuz og'zinda erdi bu so'z.
Kim, tevalarinda semizroq biri,
Bo'ldi saqat ko'rgin eranlar siri.
Bo'ldi yigit so'zlaganidan xijil,
Ko'p tegura boshladi Hotamg'a til.
Kim karamin ko'rga bu holi bila,
Yo'lchin og'irlar kishi moli bila.
Xalq tedi:-Xoja tiling bog'lag'il,
Qo'y bu fuzulliqni adab saqlag'il.
Ul kecha alqissa ne kim xosu om,
Yedilar ul bisrak etini tamom.
Chun yorudi subhu sahar urdi dam,
Tikdi Xo'tan xisravi oltun alam.
Boqsa yiroqtin ko'rinur bir g'ubor,
Chiqti arosindin bir ushtur suvor.
Yel kibi jomozasini yeldirub,
Bir sara bisrak teva yondoshturib.
Ayri yo'q o'lgan teva din bir tuki,
Et bila etmak to'la bisrak yuki.
Qofila xalqiki muni ko'rdilar,
Kelmagining kayfiyatin so'rdilar.
Dedikim:-Ushbu kecha Hotam o'zi,
Kirdi tushumizga yashorib ko'zi.
Bizga xabar berdiki, bir mehmon,
Keldiyu Mandan tiladi bazla xon.

Bir teva burch oldim alardin dedi,
Ul tevaning belgularin so‘zladi.
Bizni oshuqturdiki, ham dar zamon,
Tong boshida ko‘chqusidur karvon.
Hech nimaga boqmay itikrak surung,
Ul tevasining o‘zina yetkurung.
Ko‘rdi egin ul teva uchun malol,
Uzr, qo‘lungkim manga qilsun halol.

Bundan xulosa chiqadiki, Mavlono Haydar o‘z dostonini Nizomiy Ganjaviy asaridan ta’sirlanib yozgan bo‘lsa-da, Xoju Kirmoniyning “Ravzat ul-anvor” dostoni bilan ham tanish bo‘lgan, undan ham muayyan darajada ozuqalangan.⁶⁶

Xullas, Fors-tojik va turkiy adabiyotida saxovat timsoli bo‘lgan Hotam Toy haqida ko‘plab sujetlar yaratilgan. Xususan, XII-XVI asrlar mobaynida Hotam Toy timsolining sujetli asarlardagi ko‘plab interpretatsiyalari maydonga keldi. Ularda mazkur timsol bilan bog‘liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan. Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyjanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo‘lib qatnashgan bo‘lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o‘taydi.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

Xalq kitoblari uslubida yaratilgan “Hotamnoma” sarguzasht-didaktik nasrning go‘zal namunasi bo‘lib, turkiy adabiyotning o‘ziga xos manbalaridandir. U Hotam Toy haqidagi xalq orasida mavjud bo‘lgan tasavvurlarni, shuningdek, xalqning komil inson haqidagi o‘y-orzularini o‘zidamujassam etgan asardir. Mazkur asar yaxlit kitob holida XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo‘lsa-da, undagi sujrt va obrazlar, voqeliklar qadimiy ildizlarga ega.

⁶⁶ S. Tohirov, Haydar Xorazmiy dostonlarida xamsanavislik an‘anasining ayrim masalalari xususida // Til va adabiyot muammolari, - SamDU, 2016 yil

Fors-tojik tilidagi “Sarguzashti Hotam”da har bir bob mazmuni bitta hikmatli baytdagi masala bilan bog’langan yoki bir bayt bir bob mazmunini xulosalaydi. “Hotamnoma”da esa, uning o’rniga hikmat yoki ibora sarlavha o’rnida keltirilgan. Biroq ular asliyatda bayt shaklida bo’lganligini taxmin qilish mumkin.

“Hotamnoma”da oz miqdorda bo’lsa-da she’riy parchalar ham uchraydi. Ular asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Bu ham mazkur asarning “Xalq kitoblari”ga xos bo’lgan barcha badiiy xususiyatlarni o’zida mujassam etganligini ko’rsatadi.

“Hotamnoma” adabiyotimiz xazinasining nodir gavharlaridan bo’lib, uni har tomonlama o’rganish va o’qitish ezgu fazilatlar egasi bo’lgan barkamol inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fors-tojik va turkiy adabiyotida Alisher Navoiyga qadar ham Hotam Toy saxovati, fidoyiligi haqida ko’plab sujetlar yaratilgan. Xususan, Sa’diy Sheroziy, Xoju kirmoniy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy va Sayyid Qosimiy asarlaridagi hikoyatlar buning yorqin misolidir. Ularda mazkur timsol bilan bog’liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan. Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyjanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo’lib qatnashgan bo’lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o’taydi.

III BOB.

ALISHER NAVOIY IJODIDA HOTAM TOY TIMSOLI

III.1. Alisher Navoiy she'riyatida Hotam Toy timsoli.

Musulmon sharqi xalqlarining mumtoz adabiyoti bir qator xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu, avvalambor, adabiyot so'zining tub ma'nosidan kelib chiqadigan hodisa bo'lib, badiiy ijodga birinchi navbatda ma'naviy-axloqiy tarbiya va barkamollik vositasi sifatida qarash bilan bog'liq. Mumtoz asarlardagi umuminsoniy g'oyalar juda yashovchan bo'lib, har bir yangi davr ruhiga hamohang bo'ladi, ezgulik va adolat, odamiylikni targ'ib etib, kishilarning qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadi. Binobarin, yaxshi insoniy axloqni ulug'lash, ezgulik, e'tiqod, rostgo'ylik, ma'naviy yetuklikni himoya qilish mumtoz adabiyotda asrlar davomida kuylanib kelingan insonparvar g'oyalardandir. Shunday azaliy umuminoniy g'oyalardan biri himmat va saxovat g'oyasi bo'lib, fors-tojik va turkiy adabiyotning ilk bosqichlaridan unga alohida o'rin ajratilgan. Didaktik mazmundagi biron bir hikoyatlar to'plami yoxud masnaviy yo'qki, unda saxovat va himmat masalasi kun tartibiga qo'yilmasa. Zero saxovat fazilati nafaqat uning egasiga, balki uning atrofida qilargalarga ham bevosita ta'sir etadigan, kuchli ijtimoiy mohiyat ham kasb etadigan, jamiyatning nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy ravnaqiga ham bevosita ta'sir o'tkazadigan fazilatlardandir.

Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning muborak hadislarida "Berguvchi qo'l olguvchi qo'ldan yaxshiroqdir" deyilganidek, Adib Ahmad to'rtliklarida yozadi:

Tabi'atta yigi ot ayibsizi,

Axiyliq erur bil, buxl ko'rksuzi.

Iliklarda qutlug' berigli ilig,

Olib bermagan el ilig qutsizi.

Mazmuni: Dunyoda yaxshi va nuqsonsiz nom saxiylikdir, baxillik esa ko'rksiz ot ekanligini bil. Qo'llar ichida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib boshqalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizidir.

Ana shunday muhim axloqiy-falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy masala tahlili va tadqiqida Sharq adabiyotida Hotam Toy timsoli boy material sifatida xizmat qilgan.

Hotam Toy timsoliga she'riyatda talmeh sifatida murojaat etish, dissertatsiyaning birinchi bobida qisman ko'rib o'tganimizdek, arab she'riyatida boshlangan. Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" tazkirasiga kiritilgan bir qator shoirlar bu timsolga turli ma'no munosabatlari bilan murojaat etganlar.

Abdussalom al-Ma'muniyning madhiya baytida Hotam Toyi shoir sifatida talmeh qilinadi:

She'rlardan bokirasini senga bag'ishladim, ular Toyining nomini o'chirib, Jarir⁶⁷ ko'krigiga nayza sanchadi.⁶⁸

Shuningdek, Abu-l-Fazl al-Hamadoni she'rlaridan keltirilgan misollar ichida ham Hotim (Hotam) timsoliga talmeh qilingan bayt bor:

Ishni har qancha pishiq qilsa ham, hech kim Hotimdek emas, ulug' martabadagi yangi narsa qadimgisiday emas.⁶⁹

Hotam baytda saxovat timsoligina emas, donishmand, tadbirkor, shunchaki yaxshi inson sifatida ham tilga olingan.

Ayni shu davrdan boshlab Hotam timsoli fors-tojik adabiyotiga ham kirib kelganligi kuzatiladi. Bu borada fors-tojik mumtoz she'riyatining asoschilaridan bo'lgan "Odam ush-shuaro" Abu Abdulloh Ro'dakiy she'riyati alohida ahamiyatga ega. Ro'dakiy o'zining madhiyalarida hamda lirik she'rlarida Hotam timsoliga tez-tez murajaat etadi:

Ne ki Hotam nest bo judi tu rod,

Ne ki Rustam nest dar jangi tu mard.⁷⁰

Mazmuni: Hotam sening saxovatingga teng kelolmaydi, Rustam esa jangda senchalik mard emas.

⁶⁷ VII asrning II yarmi VIII asr boshlarida yashab o'tgan arab shoiri.

⁶⁸ Abu Mansur As-Saolibi. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr. (Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I.Abdullayev). – Toshkent: Fan, 1976. 196-bet

⁶⁹ Shu kitob, 326-bet.

⁷⁰ Shu kitob, 238-bet.

Ro'dakiy she'rlarida Hotam timsoli ko'pincha Rustam timsoli bilan yonma-
yon ishlatiladi. Shu holatni Umar Xayyomning ushbu ruboiysida ham kuzatamiz:

To dar tani tust ustuxonu ragu pay,

Az xonai taqdir maneh berun pay;

Gardan madeh ar xasm buvad Rustami Zol,

Minnat makash, ar do'st buvad Hotami Tay. Umar Xayyom

*Mazmuni: Toki tanangda suyak, tomir va pay bor ekan (ya'ni toki tanang
sog'lom, kuch-quvvating bor ekan), Taqdir uyidan tashqari chiqishga urinma.*

*Dushmaning Zolning o'g'li Rustam bo'lsa ham, bo'yin egma, do'sting
Hotam Toy bo'lsa ham, minnatini tortma.*

O'zbek mumtoz she'riyatida ham Hotam Toy (Hotami Tay) timsoliga
murojaat etish ancha qadimiy an'analarga ega bo'lib, biz tahlilga tortgan manbalar
orasidan ilk misollarni Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridan topdik:

Agar ming yil tirilsa Hotami Tay,

Sening oting eshitgach yerlar o'pgay.

Xorazmiy o'zining mamduhi Muhammad Xo'jabekni madh etishda Aflotun,
Rustam kabi tarixiy shaxslar bilan birga, Hotam timsolidan unumli foydalangan.
Baytda Hotamning fazilati qayd etilmasa-da, bunda saxovat, xayr-ehson nazarda
tutilganligini tushunib olish mumkin. Xorazmiy Ro'dakiy an'anasini davom
ettirgan holda, Hotam timsolini Rustam bilan paralel tarzda qo'llaydi:

Gahe Hotam uyolur bazm ichinda,

Gahe Rustam yuponur razm ichinda.⁷¹

Xorazmiy Hotam timsolidan nomalar orasida keladigan soqiynomalar –
soqiyga murojaat bilan boshlanuvchi masnaviylarda ham foydalanadi:

Kel, ey soqiy, keturgil lolagun may,

Kim ul may qildi ko'pni Hotami Tay.⁷²

⁷¹ Xorazmiy. Muhabbatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur Fulom nomidagi adabiyot va san'at
nashriyoti, 1987-yil. 14-bet.

⁷² Shu kitob, 27-bet.

Xorazmiyning nomanaveslikdagi an'anasini davom ettirgan shoirlar "Muhabbatnoma" kompozitsiyasidagi bu detalni ham nazardan chetda qoldirmadi. Deyarli barcha turkiy nomalarda Hotam timsoliga murojaat etish holatini kuzatishimiz mumkin. Jumladan Xo'jandiyning "Latofatnoma" dostonida:

Saxovat bobida chun Hotami Tay,
Shijoat mulkida chun Kovusu Kay.⁷³

Xo'jandiy saxovat ramzi sifatida qo'llangan Hotam timsoliga shijoat ramzi sifatida kayoniylar sulolasi vakillari bo'lgan Kaykovus va Kayxusravni paralel tarzda qo'llaydi. "Latofatnoma" Mahmud sultonga bag'ishlangan bo'lib yuqoridagi madhiya baytda uni pahlavon Rustamga emas, aslzoda, far egalaridan bo'lgan podshohlarga qiyoslashni ma'qul ko'radi.

XV asr turkiy adabiyotning yirik vakillaridan biri bo'lgan Sayyid Qosimiy adabiy merosida ham Hotam timsoli muhim o'ringa ega. Uning "Majma' ul-axbor" dostonida Hotam haqida alohida hikoyat keltiriganligidan tashqari (bu haqda oldingi bobda fikr yuritilgan edi), shoir talmeh sifatida ham mazkur timsolga tez-tez murojaat etadi. Jumladan, "Haqiqatnoma" masnaviysidagi bir hikoyatda podshoh obrazini chizar ekan, uning tantiligini, jo'mardligini quyidagicha tavsiflaydi:

Ko'ziga ilmayin Zahhoku Kayni,
Teng etmay bir javiga judi Tayni.⁷⁴

Mazmuni: Zahhok-u Kayxusrav (saltanati)ni ko'ziga ilmaydi, Hotamning saxovatini bitta arpaga tenglashtirmaydi.

"Bir dona arpaga olmaslik" forsiy she'riyatda keng qo'llanadigan iboralardan bo'lib, deyarli barcha shoirlar ijodida kuzatish mumkin. Masalan:

On joki manu himmati yoroni man ast,
Yak jav naxaram Jo'nai Hindustonro.⁷⁵ Pahlavon Mahmud.

⁷³ Shu kitob, 54-bet.

⁷⁴ Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. – Toshkent: Fan, 1992. 150-bet.

⁷⁵ Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida keltirilgan.

Mazmuni: Men bilan do'stlarim himmati bo'lgan joyda Hindiston Jo'nasini bitta arpaga almashtirmayman.

Yoki:

Chu bexud gasht Hofiz kay shumorad,

Ba yak jav mulkati Kovusu Kayro.⁷⁶ Hofiz Sheroziy

Mazmuni: Hofiz bexudlikda (o'zini bilmaydigan holatda) bo'lsa Kovus (Kaykovus) bilan Kay (Kayxusrav)ning davlatini birgina arpa donasichalik qadrlamaydi.

Sayyid Qosimiyning yuqoridagi bayti aynan shu baytga tatabbu' qilingani sezilib turadi.

Sayyid Qosimiy masnaviylarida eng ko'p tilga olinadigan mavzulardan biri dunyoning o'tkinchiligi mavzusi bo'lib, uning talqinida ham Hotam timsoliga ko'p bora murojaat etilgan:

Qani Afrosiyobu hashmati Kay,

Qani No'shiravonu Hotami Tay.⁷⁷

Yoki "Ilohiynoma"da:

Nazar qil Hotamu No'shiravona,

Jahondin qildilar oxir karona.⁷⁸

Demak Sayyid Qosimiy masnaviylarida Hotam Toy timsoli asosan Eron shohlari (Jamshid, Zahhok, Kaykovus, Kayxusrav, Anushervon) bilan yonma-yon qo'llanadi.

XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan shoir Badriddin Hiloliy masnaviylarida ham Hotam timsoliga tez-tez murojaat etiladi. Bunda timsolning yangicha talqinlarini ham uchratamiz:

Va gar kofir ba ehson dast girad,

Chu Hotam nomi o' hargiz namirad.

⁷⁶ Hofizi Sheroziy. Muntaxabi devon. –Stalinobod: Nashriyoti davlati, 1957. 36-sah.

⁷⁷ Shu yerda.

⁷⁸ Shu kitob, 213-bet.

Mazmuni: Agar kofir ehsonga qo'l ura, Hotam kabi uning nomi hech qachon o'lmaydi (o'chmaydi).

Baytda xayr-u ehson, saxovat insonning boshqa kamchiliklarini yopishi, uning ezgu nomini abadiylashtirishi haqidagi an'anaviy mazmun Hotam timsoli yordamida badiiy ifodalangan. Shunday mazmun Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostonida ham mavjud edi:

Qamug' til axi er sanosin ayur,
Axiylik qamug' ayb kirini yuyur.
Axiy bo'l senga so'z so'kunch kelmasun,
So'kunch kelgu yo'lni axiylik tiyur.⁷⁹

*Mazmuni: Hammaning tili saxovatli kishining madhini qiladi, saxiylik kishilarning barcha kamchiliklarini yuvib ketadi. Saxiy bo'l, senga la'nat, so'kinch kelmasin, la'nat keltiradigan yo'lni saxovat berkitib qo'yadi.*⁸⁰

Hiloliy asarlarida Hotam timsoli sarkazm bilan sug'orilgan kinoyaviy baytlarda ham qo'llangan:

Xarj chu az kisai mehmon buvad,
Hotami Toyi shudan oson buvad.

Mazmuni: Xarajat mehmonning cho'ntagidan bo'lgach, Hotam Toylik qilish oson bo'ladi.

Arab, fors-tojik va turkiy adabiyotdagi mazkur an'ana "So'z mulkining sohibqironi" (Husayniy), qalamiga "falakdan ofarinlar yog'diril"gan (Jomiy) Alisher Navoiy ijodida yanada takomillashdi. Buyuk so'z san'atkori badiiy ijodga aloqador bo'lgan deyarli barcha jihatlarida bo'lgani kabi an'anaviy obrazlardan foydalanish borasida ham yuksak mahorat va tasavvurga sig'maydigan darajada keng mushohada, benihoya boy tafakkur olamini namoyon etdi. Buni Navoiy ijodi, xususan, lirikasining obrazlar dunyosi, timsollar badiiyatini chuqur tadqiq etgan A.Rustamov, Yo.Ishoqov kabi ustoz olimlar ham ko'p bora ta'kidlashgan.

⁷⁹ Tohirov S. Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoni: matn, tadqiq va tahlil. – Sam.: SamDU nashri, 2009. 76-bet

⁸⁰ Shu kitob, 77-bet.

Oliyhimmatlik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazidan foydalanishda ham biz Alisher Navoiy badiiy mahoratining o'ziga xos qirralarini ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida qayd etish joizki, Hotam timsoliga murojaat etishning dastlabki davrlarida uni saxovat ramzi sifatida namuna qilib ko'rsatish, yoxud ta'riflanayotgan shaxsni unga o'xshatish, tenglashtirish mazmuni yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik, XIV-XV asrlar she'riyatiga kelib bu mazmun bir o'z o'zgardi. Endi shoirlar o'zlari ta'riflayotgan shaxsni Hotamdan ustun qilib ko'rsatishga buning uchun yangi-yangi mazmunlar, detallar ixtiro etishga harakat qilishdi. Ayniqsa Alisher Navoiy ijodida bunday usul keng qo'llangan bo'lib, uning lirik qahramonlari go'zalligi oldida Yusuf uyaladi, shijoati oldida Rustam o'zini ojiz sezadi, Quyosh nur taratmay qo'yadi va hokazo. Hotam timsolidan foydalanishda ham Navoiy asosan shu usuldan foydalangan.

Navoiy she'riyatida Hotam timsolining ilk namunasi "Xazoyin ul-ma'oni" kulliyotining debochasida uchraydi:

Mavrusiy qul jinsi baniy Odam anga,
Meros ila mulk jumlayi olam anga,
Hayron karamu jud ishida Hotam anga,
No'shirvon adl ichinda tobi` ham anga.⁸¹

Husayn Boyqaroga atalgan ushbu madhiya ruboiyning 3-4-misralarida Navoiy Hotam va No'shiravon timsollarini qo'llagan holda mamduhning xayru saxovati va adolatini mubolag'ali tarzda ifodalashga erishadi.

Alisher Navoiyning g'azal janridagi lirik she'rlarida Hotam Toy timsoliga murojaat etish hodisasi ko'p emas. Biroq ana shu kam sonli misollarda ham buyuk iste'dod sohibining yuksak mahorati qirralariga guvoh bo'lish mumkin.

Jumladan, "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 97-tartib raqamidagi g'azalda Hotam timsoli qo'llangan. G'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Jamolin vasf etarmen hamdamim ul gul`uzor o`lg`ach,
Quruq shox o`ylakim zohir qilur gullar, bahor o`lg`ach.

⁸¹ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 3-tom. – Toshkent: Fan, 1988. 12-bet.

Ishqiy mazmundagi mazkur g'azalning matla'sida lirik qahramon yoriga hamdam bo'lgach, uni vasf etishini ikkinchi misrada bahor kelgach quruq shoxlar ham gul ochishiga qiyos qiladi.

Kompozitsiya nuqtai nazaridan yakpora bo'lgan ushbu g'azalda lirik qahramonning ruhiy holati tavsifi baytdan-baytga didaktik mohiyat kasb eta boshlaydi, yettinchi baytga borib falsafiy ruh oladi. Ayni shu baytda shoir Hotam timsoliga murijaat etadi:

Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshidu Afridun?

Bas ehson qil sanga gardundin adno e'tibor o'lg'ach.

Baytda saxovat, boylik, shon-shavkat va saltanat timsollari birlashtirilgan. Ularning birontasi abadiy emasligi, binobarin, umrni yaxshilik, xayr-ehson bilan o'tkazish lizimligi uqtiriladi.

“Badoye’ ul-vasat” devonida joylashgan “Hiloliya” qasidasida ham Hotam timsoliga murojaat etilgan.

Chun saxovat ilgi ochsang, dahr chekmas zarrae,

Zarfishonlig‘da quyosh sarpanjasining minnatin.

Chun ziyofat xoni yoysang, janbida topmas sipehr,

Jashni lu'bat Hotamu Barmak bisoti ne'matin.⁸²

Mazmuni: Agar sen (Husayniy) saxovat qo'lini ochsang, dunyo qiyoshning zar to'kuvchi panjasi minnatini ko'tarmay qo'yadi (ya'ni undan nur kutmay qo'yadi). Agar ziyofat dasturxonini yoysang, falak oldida Hotam bilan Barmakning qo'g'rchoq ziyofati ne'matlarini topolmay qoladi. Ya'ni sening ziyofating oldida ularniki qo'g'irchoqlarning yolg'on ziyofatiga o'xshab qoladi.

Baytda Hotam bilan yonma-yon tilga olingan Barmak (aniqrog'i **barmakiylar**) haqida “Farhangi zaboni tojiki” lug'atida shunday ma'lumot bor:

Barmakiy

1. Balxlik Ja'fari Barmak avlodi. Ularning aksariyati VIII asrda arab xalifalarning vaziri bo'lgan.

⁸² Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990. 482-bet.

2. Maj. saxiy; shijoatli, jasur.

Demak baytda Hotam bilan birga tilga olingan tarixiy shaxs ham saxovati xalq uchun ko'p dasturxon yoyishi bilan mashhur bo'lgan.

Mazkur shaxs "Hayrat ul-abror" dostonida ham Hotam bilan yonma-yon tilga olinadi:

Kaflaring oini chu bermak bo'lub,

Kim munga Hotam anga Barmak bo'lub.

"Favoyid ul-kibar" devonidagi bir qit'aning sarlavhasida ham o'zida ham Hotam ismi tilga olingan. "Qanoat sinuq safolin jomi jamdin va faqr quruq nonin Hotam chekkan nia'mdin yaxshiroq ko'rar muntahi" sarlavhali qit'aning matni quyidagicha:

Sinuq safolki, may durdin ichkali topsang,

Qabul aylamagil jomi saltanat Jamdin.

Ilikka kirs quruq non, maosh uchun chekma

Nashot ne'matining minnatini Hotamdin.⁸³

Mazmuni: May quyqasini ichish uchun siniq safol topsang, Jamshiddan saltanat jomini qabul qilma. Qo'lingga quruq non tushsa, ehtiyoj uchun Hotamning ziyofati minnatini ko'tarma.

Alisher Navoiy "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda ham Hotam Toy timsoliga talmeh sifatida murojaat etgan. Jumladan, "Hayrat ul-abror" dostonida shunday baytlar bor:

Bor esa Rustamcha birov quvvati.

Hotami Toyicha aning himmati.

Ilgida Qoruncha bo'lub ganju mol,

Topmoq erur xalq rizosin mahol.

Tabdili: Birovning Rustamchalik kuch-quvvati bo'lsa, Hotam Toy kabi saxovati-yu Qorunchalik mulki bo'lsa ham, xalqning roziligini topish oson emas.

⁸³ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 6-tom. – Toshkent: Fan, 1990. 515-bet.

“Sab’ayi sayyor” dostonidagi to’rtinchi musofir hikoyasida (“Juna va Mas’ud”) ham shoh Junaga Mas’ud haqida so’zlab bergan musofir Hotamni eslaydi:

Ishlarin gar shikasta basta, dedim,
Yuzidin birni jasta-jasta, dedim,

Ura olmon vale saxosida dam,
Men nekim, gar tirilsa yuz Hotam.

Tabdili: Men uning ishlarini bo’lak-bo’lak qilib, yuzdan birini aytib berdim. Uning saxovatini ta’riflay olmayman. Mengina emas, Yuzta Hotam tirilib kelsa ham (ta’riflab berolmaydi).

Shu baytlar izohida Hotam haqida quyidagi ma’lumotlar berilgan:

“Hotam – Sharqda o’zining o’ta saxiyligi bilan nom chiqargan afsonaviy shaxs. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonining karamga bag’ishlangan beshinchi maqolotida Hotamning himmat va saxovatiga bag’ishlangan maxsus hikoyat keltiradi.

Ushbu izohdagi ikki holat shubha uyg’otadi. Birinchidan Hotam timsolida afsonaviy unsurlar aralashgan bo’lsa-da, muayyan tarixiy asoslarga ega. Ikkinchidan, “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyat Hotamning saxovati haqida emas, o’tinchi cholning himmati haqidadir.

Va nihoyat, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonida ham Hotam Toy shaxsiyati tilga olingan. Bunda an’anaviy mazmunga mos holda Hotam timsoli Rustam bilan birgalikda qo’llanadi. Dostonning Balx ta’rifiga bag’ishlangan satrlarida uning aholisi o’ziga xos tarzda tavsiflanadi. Go’yo u yerdagi har bir gado (ya’ni eng kambag’al odam) Hotam Toy kabi, har bir lashkar esa Rustam kabi pahlavondir.

Bu kishvarda har bir gado Hotame,
Dog’i har sipohi kelib Rustame.

Demak Alisher Navoiy Hotam Toy timsolidan foydalanishda mavjud anʼanalarga tayangan holda, uni yangi maʼno qirralari, yangi yondosh nimsollar bilan boyitgan, Navoiy sheʼrlarida Hotam Toy saxovat va himmat bilan birga qanoat, dunyoning oʻtkinchiligi, xalqning roziligi kabi mazmunlar ifodasida ham qoʻllangan.

Xulosa qilib aytganda, Hotam Toy timsoli nafaqat sujetli asarlarda hikoyat va qissa shaklida, balki lirik sheʼriyatda ham talmeh sanʼati mazmunida koʻp murojaat etiladigan obrazlardan biridir. Bu timsol asosida yaratilgan talmehlar dastlab arab sheʼriyatida IX-X asrlar adabiyotida (har holda biz toʻplagan maʼlumotlar shundan guvohlik beradi) koʻzga tashlanadi. Shu davrda fors-tojik sheʼriyatiga ham kirib kelgan bu timsol tilga olingan baytlar Abu Abdullo Roʻdakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Saʼdiy, Hofiz kabi mumtoz shoirlar adabiy merosida tez-tez uchraydi.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida Hotam timsoliga ilk murojaatlar nomanavislik anʼanasi namunalarida uchraydi. Qiziq tomoni, deyarli barcha nomalarda Hotam Toy timsoli turli maqsadlar taammuli sifatina namoyon boʻladi.

Hotam timsoli aksariyat holda Jamshid, Zahhok, Faridun, Rustam, Kaykovus, Kayxusrav, Anushervon kabi Firdavsiy qahramonlari, Qorun, Sulaymon kabi diniy manbalardagi timsollar bilan birga tilga olinadi.

Lirik sheʼrlar matnidan maʼlum boʻladi-ki, Hotamning nisbasi koʻpincha Toy emas Tay shaklida qoʻllanadi. Bunda qofiya asosiy rol oʻynaydi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maʼoni” kulliyoti debochasidan boshlab barcha qismlarida, “Xamsa”ning barcha dostonlarida Hotam Toy timsoliga murojaat etish namunalarini uchratamiz. Yuqorida tilga olingan tarixiy va afsonaviy obrazlar bilan birga uning sheʼriyatida Hotam bilan birga Barmak timsoli ham qoʻllanadi.

Hotam Toy timsoli qoʻllangan talmehlarda dastlab saxovat ramzi sifatida namuna qilib koʻrsatilgan, taʼriflanayotgan shaxs unga oʻxshatilgan, tenglashtirilgan boʻlsa, keyinchalik, bu mazmun bir oz oʻzgardi. Endi shoirlar

o'zlari ta'riflayotgan shaxsni Hotamdan ustun qilib ko'rsatishga buning uchun yangi-yangi mazmunlar, detallar ixtiro etishga harakat qilishdi. Hotam timsolidan foydalanishda Navoiy asosan shu usuldan foydalangan.

III.2. Alisher Navoiyning epik asarlarida Hotam Toy obrazi.

Alisher Navoiyning o'zbek mumtoz adabiyotini benihoya boyitgan ko'p sonli sujetlari orasida Hotam Toy haqidagi hikoyati ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'pgina olimlar tomonidan qayd etilgan. Mazkur hikoyat "Hayrat ul-abror" dostonida karam ta'rifiga bag'ishlangan beshinchi maqolatga ikova qilingan.

"Hayrat ul-abror"ning karam, saxovat, himmat fazilatlarini talqiniga bag'ishlangan beshinchi maqolati 108 baytdan tashkil topgan. Karam-komil inson qiyofasida, umuman, inson umri va uning taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga molik fazilatdir. Karam-saxovat, himmat, ehson, marhamat, oliyjanoblik, yaxshilik, ochiqqo'llilik, javonmardlik singari xilma-xil qirralarga ega. Alisher Navoiy ana o'sha qirralarning har birini ayri-ayricha ixlos-u urg'u bilan bo'yoqdor yoritishga harakat qildi.

Ey tushub egningga karam kisvati,
Qolmayin ilgingda diram qiymati.
Panjang o'lub siym fishonliqqa fosh,
Mashriq-u Mag'ribda nechukkim quyosh.

Maqolatning birinchi satridayoq ulug' shoirning g'oyaviy niyati o'zini ko'rsatib qo'yadi. Saxovatpeshalik-olijanoblik. Maqolat markazida ijobiy fazilatlarini bilan salobat to'kib turgan qahramon eng avvalo, ana o'sha jihati bilan ulug' shoirga manzur va uning mehru oqibatini qozongan. Himmat va yaxshilikni nomigagina yuzaga chiqarib bo'lmaydi. Bu boradagi sun'iylik va soxtalik darrov o'zini ko'rsatib qo'yadi. Shundan bo'lsa kerak, Alisher Navoiy ta'sirni o'zak masaladan boshlashdan tashqari, yana bir haqiqatni qat'iyat bilan o'rta qo'yadi. Jo'mard yoxud olijanob inson bo'lib tug'ilishi lozim. Tabiatan va sidqan moyillik bo'lmas ekan, bu jabhadagi barcha sa'y-u harakatlar bekorga ketaveradi.

Fikrimizcha, birinchi satrda “kisvat”ni qo‘llash zamirida ana o‘sha maqsad yotadi. Kiyim, ust-bosh ma’nosidagi o‘sha so‘z mantiqiy urg‘u vazifasini o‘taydi. Saxovatpeshalik bu yo‘lni qismat qilgan insonning zohir-u botinidan anglashilib turishi lozim. Ochiq va himmatli panjalar sifatida shuhrat qozonadi. Bunday manzaralardan sarxush shoir himmat ko‘rsatadi, o‘sha panjalarni quyosh bilan yonma-yon qo‘yadi. Saxovat-ta’madan yiroq. Oluvchi olganini qaytara oladimi, yo‘qmi, beruvchi uchun masalaning bu jihati ahamiyatsiz bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun satrda quyosh va saxiy odam yonma-yon turibdi, hatto quyosh ibrat darajasiga ko‘tarilgan. Ulug‘ shoir baxil-baxillik, qurumsoqlik, xasislik bilan bog‘liq masalalarni qalamga oladi:

Aqlki ta’rif etar avsofni,
Buxl bila teng tutar isrofni.

Maqtoov, shon-shuhrat uchun sochilgan mol-mulk saxiylik emas. Hamisha va hamma yerda inson aql-u farosat doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Isrof-illat. Hatto behuda isrofgarchilik xasislik bilan barobardir.

Alisher Navoiy nazdida saxovatli inson quyidagi baytlarda o‘z ifodasini topgan ezgu fazilatlar sohibidir:

Oni saxiy anglag‘il, ey xushmand,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.
Holi agar yaxshi durur, gar taboh,
Kimsadin etmas tama’i mol-u joh.
Ham neki haq bersa qanoat qilur,
Ham neki amr etmish itoat qilur.

Navoiy “Hayrat ul-abror”ning butun bir maqolatini saxiylikni ulug‘lashga bag‘ishlaydi. Navoiy saxiylikni baxillikka qarama-qarshi qo‘yish orqali saxiylikning afzalliklarini ochib beradi, saxiylik kishining olijanob fazilati ekanligini ko‘rsatadi. Saxiylikning me’yori haqida to‘xtaladi. Och bo‘lmagan kishilarga kiyim berish saxiylik emas, isrofgarchilik, xushomadgo‘ylik ekanini ta’kidlaydi.

U odamlarni kuch va mablag‘ni foydali va o‘rinli yerlarga sarf etishga targ‘ib qilib, bundaay deydi:

Boshing uza jonu soho afsari,
Afsaring ustida karam gavhari...
Garchi saxovat senga oyinn erur,
Boshinga bu dur bila tazyin erur.
Bu duri serobni xor aylama!
Buxl hisobida shumor aylama.⁸⁴

Saxiylikni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb bilgan Navoiy halol mehnat qilib, o‘z qo‘l kuchi bilan kun ko‘rishni har qanday saxiylikdan ustun qo‘yadi.

Navoiyning mehnatga va mehnat ahliga bo‘lgan munosabati shu maqolatning oxirida keltirilgan “Hotam Toyi” hikoyasida yanada ravshan namoyon bo‘ladi.

Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida mashaqqat bilan topilgan bir diram (tanga) birov bergan xazinadan afzalligini ifodalagan “Hotam Toyi hikoyasi”ni keltiriladi. Bu hikoya sujeti Sa‘diyning “Guliston” va Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarlarida ham mavjud edi.

Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asaridagi uchinchi bobda keltirilgan hikoyatda aytilishicha, “Hotam Toyg‘a aytdilar: “O‘zingdin ziyoda oliyhimmat kimsani jahonda ko‘rdingmu yo eshitdingmu?” Hotam aydi: “Ore bir kun qirq tevani so‘ygan erdim va arab beklari ila sahroning bir tarafig‘a bir zarurat uchun ketgan erdik. Bir o‘roqchini ko‘rdimki bir orqa tikanni to‘plagan, anga aydim: “Hotam Toyning mehmonlig‘iga nima uchun bormassan? Zeroki bir jamoa xalq aning dasturxonig‘a yig‘ilgandurlar”, O‘roqchi aydi:

“Yesa non har kishi o‘zi ishidin,
Hech minnat eshitmag‘ay kishidin”.

Insof ayladimki, men ani himmat va saxovatda o‘zimdin ziyoda ko‘rdim”.⁸⁵

⁸⁴ A. Navoiy, Xamsa, Toshkent, 1960, 67-bet.

“Guliston” asarining ijodiy tarjimai boʻlgan Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarida ham, tabiiyki, mazkur hikoyat mazmuni saqlangan.

Rivoyatlarga koʻra, Hotam Toy umrini odamlarga yaxshilik qilishga bagʻishlaydi. Butun boyligini xayr-ehson yoʻlida ishlatsa-da, uning davlati kamaymagan, aksincha ortib boravergan.

Hotam Toy saxiylik, toʻgʻrilik, rostgoʻylik, sevgi va sadoqat, odamlar oʻrtasidagi doʻstlik va muruvvat, tinchlik va farovonlik kabi hislatlarni oʻzida mujassam etgan timsol.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, dostonida ham Hotam haqida ibratli hikoyat keltiriladi.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” ning beshinchi maqolatida vujud-vujudi bilan saxovatni targʻib qiladi. Uning xayolga keltirish dushvor boʻlgan ochilmagan qirralarini kashf etishga erishadi. Biroq oʻsha qarashlarning tasdiq muhri sifatida “Hotami Toyi va oʻtinchi” hikoyatini taqdim qiladiki, uning ayni lavhalarining mazmuni boshqacha. Hotam-musulmon dunyosida saxovat timsoli. U haqida behisob asarlar yaratilganligi barchaga maʼlum. Alisher Navoiy sheʼriy hikoyatining qahramoni ham oʻsha Hotam Toyidir.⁸⁶

Hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: Hotam degan bir saxiy kishi boʻlgan. Hotamdan oʻzidan ham saxiy, himmatli odamni koʻrgan-koʻrmaganligi haqida soʻrganlarida, u quyidagi voqeani hikoya qiladi. Hotam har doim kambagʻallarga koʻplab narsalar inʼom qilar, ularni yigʻib ziyofatlar berar edi. Shunday ziyofatlardan biri oʻtayotgan vaqtda Hotam Toy dashtga chiqadi. U yerda bir quchoq yantoqni orqalab ketayotgan moʻysafidni koʻrib qoladi. Moʻysafid haddan tashqari holdan toygan, yukning ogʻirligidan hassaga suyanib, har damda toʻxtar, ogʻir-ogʻir nafas olar, soʻng yana mashaqqat bilan bir-ikki odim tashlar edi. Bu holni koʻrgan Hotamning moʻysafidga juda rahmi keladi va unga qarab: -Ey

⁸⁵ Saʼdiy Sheroziy. Guliston 143-sah.

⁸⁶ Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Oʻquv qoʻllanma)-T.: Yangi asr, 2006.

mehnatda azoblangan zahmatkash, nima uchun o‘zingga shunchalar azob berasan? Hotam Toyning bugun ziyofat berayotganidan xabaring yo‘qmi? Tikanni tashla, mashaqqat chekma, sen ham Hotamning uyiga borib, noz-ne‘matlardan bahramand bo‘l,-deydi. Shunda mo‘ysafid boshini ko‘tarib unga istehzo bilan kulib qaraydi-da, shunday javob qaytaradi:-Sen hali mehnatning lazzatini tatib ko‘rmagan ekansan, sen ham mehnat qil o‘z qo‘l kuching bilan kun kechir, Hotam Toy minnatini tortma. Ter to‘kib topilgan bir tanga o‘zgalar bergan xazinadan afzaldir.

Tikonchi cholning halol mehnat, luqmai halol bilan yashamoq, garchi bu og‘ir bo‘lsa-da, birovning, jumladan Hotami Toyining xazina - boylik, ziyofatlaridan ham ortiqdir, chunki kimki halol mehnat bilan yashasa, birovning minnatini tortmaydi, degani Hotami Toyining quyidagi e‘tirofiga, ya‘ni oliyhimmatlilikda tikonchi cholning (Hotami Toyidan) ham ustun ekanligiga sabab bo‘ladi:

“Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi:

Mendin aning himmati afzun edi.

Himmat agar bo‘lsa Navoiy sanga

Bandadurur Hotami Toyi sanga.

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy Sharqda saxiylik timsoli sifatida shuhrat qozongan Hotami Toyidan o‘z halol mehnati bilan yashashni afzal biluvchi oddiy mehnatkash tikonchi cholni komil insonning namunasi, timsoli sifatida alohida ta’kidlaydi.

Shoir mo‘ysafidning javobidan Hotam izza bo‘lganligini, cholning himmati uning himmatidan yuqori ekanligini bayon etadi. Shunday qilib, hikoyatda halol mehnatni, u bilan shug‘ullanuvchi insonni ko‘klarga ko‘tarish, mehnatsevarlikni ulug‘lash, tamagirlikni qoralash g‘oyasi ilgari surilgan.

Navoiy mehnatni, yaratuvchilikni, har qanday saxiylik va oliyhimmatlikdan ustun qo‘yadi. U mehnatsevarlikni kishining olijanob fazilatlaridan biri sifatida talqin etadi.

Hotam saxiylik bilan nom chiqargan, o'z boyligini muhtojlarga ayamay sarf qiluvchi rahmdil shaxs. Shuning bilan birga, muhtojlarga ancha yordam berishi bilan mag'rur odam. U zolim emas. Navoiy Hotamni olihimmat, saxiy obraz qilib berishdan ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. U, bir tomondan, o'z davridagi ziqna, shavqatsiz boyonlarni Hotamdan o'rnak olishga undasa, ikkinchi tomondan, mehnatni, yaratuvchanlikni har qanday saxiylikdan ustun ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Hikoyadagi markaziy, belgilovchi- obraz mehnatkash choldir. Hikoyaning asosiy g'oyasi-mehnatni ulug'lash shu chol obrazi orqali ifodalangan. Hikoya hajm jihatdan juda kichik - 22 baytdan iborat. Unda birgina voqea bayon etiladi. U yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan, undagi har bir so'z, har bir detal asosiy maqsadga, g'oyani chuqurroq ifodalashga, obrazni jonli qilishga, voqeani to'laroq tasvirlashga qaratilgan.

Muallif chol obrazni individual hislatlari bilan gavdalantiradi. Cholning ma'naviy hayoti va tashqi qiyofasini mohirlik bilan tasvirlaydi. Bu tasvir obrazning ma'naviy qiyofasini ham ko'rsatib turadi. Masalan, cholning portreti quyidagicha bo'yoqlarda beriladi:

Sayrda ko'rdim bir asiri mixan.
Bir quchoq orqasiga yuklab tikan.
Jismi o'yin aylabon ul yuk nigun,
Tirkabon ul uyga asodin stun.
Har qadam olg'uncha yetib muddate
Har nafas urg'uncha o'tib fursate.

Mana shu qisqa satrlarda mehnat qilayotgan odamning qariligi, mehnat sharoitining og'irligi, dashtning jazirama oftob ekanligi, buning ustiga o'tinning tikanligi, lekin shunga qaramay borishga majoli qolmagan keksaning harakat qilishi mohir rassom kabi real bo'yoqlarda chizib berilgan. Bunga Navoiy ajoyib badiiy tasvir vositalarini yaratish bilan erishgan.

Yuqoridagi:

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun,

Tirkabon ul uyga asodni sutun,

baytida Navoiy tashbix san'atini ishlatgan. Bu tashbeh realistik xarakterga ega. Qarilik va og'ir mehnat oqibatida bukchaygan cholning gavdasi xaroba bo'lgan uyga, chol gavdasini ko'tarib turgan uning qo'lidagi xassa esa vayron bo'layotgan xaroba uyni yiqilib ketmaslildan saqlab turgan ustunga o'xshatiladiki, juda yaxshi berilgan. Yana, Navoiy yosh odamni olmay, qari cholni tasvirlaydi. Chol ko'tarib kelayotgan o'tin ham oddiy o'tin emas, tikanli.⁸⁷

Navoiy haqiqiy inson mehnat faoliyatidagina qadr-qimmat va e'tibor qozonadi, bunday kishilar o'z mehnatlari bilan faxrlanishga to'la haqlidirlar, deb uqdiradi.

Mehnatkash chol Hotamning iltifotini, rahm-shafqat bilan aytgan so'zlarini itoatkorona eshitib qolmaydi. Balki uning o'zini mehnat qilishga da'vat etib, koyiydi. Mana mehnatkash qariya tomonidan Hotamning lutfu karamiga berilgan javobi:

K-ey solibon hirs ayog'ingga band,

Ozu tama' bo'ynuga bog'lab kamand.

Vodiyi g'ayratg'a qadam urmag'on,

Kunguri himmatga alam urmag'on.

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,

Tortmag'il Hotami Toy minnatin.

Bu javobda mehnatning ahamiyati, uning birovga qaram bo'lishlikdan qutqaruvchi fazilati, mehnat kishisiga xos g'urur ta'kidlanib, o'z qo'l kuchi bilan yashashlik har qanday tekin taomdan ustun ekanligi yaxshi ochilgan. Shuning bilan birga, minnat qilish kishi uchun yoomon hislat ekanligi tanqid qilingan. Navoiy mehnatkash cholni mag'rur, o'z izzat nafs, insonlik sharafiga yoqlashga qodir kishi sifatida tasvirlagan.

⁸⁷ N. Karimova, Navoiy-mehnat kuychisi, // O'zbek tili va adabiyoti, 1965, 1-son, 50-51-sahifa.

Hikoyatda halol mehnat masalasi mo'ysafid obrazi orqali ochilsa, saxiylik masalasi Hotam obrazi orqali beriladi.

Hotam Toy timsoli o'zbek adabiyotida Alisher Navoiydan keyin Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostonida ham qo'llangan. Navoiy "Hotam Toyi hikoyasi"dan tamagir bo'lmaslik, o'zgalar hisobiga yashashdan or qilish, halol mehnat bilan topilgan tangananing qiymati juda baland bo'lishini uqdirish maqsadida foydalangan bo'lsa, Xoja saxovatli, himmatli, muruvvatli shohlar xususida so'z yuritib, Hotam Toyning "hotam"liklaridan birini keltiradi.

Dostonda yozilishicha, kambag'allarga rizq – ro'z bo'lishib yuradigan, birovning biron moliga ko'z olaytirmaydigan bir shoh Hotam sahovatlari haqida ko'p eshitgach, uni sinab ko'rmoqchibo'ladi. Shu niyat bilan u Hotam Toyining tengi yo'q "dulduli soniy", "gardig'ayel ham yeta olmaydigaan" otini so'ratib elchi yuboradi. Elchini xushnudlik bilan kutib olgan Hotam Toyi mehmon oldiga shu otni so'yib taom tayyorlab olib keladi.

Elchi o'z maqsadini bayon etganda, Hotam Toyi:

Dediki: "Kech kelding, esa o'yu qo'y,
Topmadimu, dedim, o'shal otni so'y...
Ushbu et ul otning etidur biling,
Munga nedur chora, taomil qiling".

Bu so'zni eshitib, lol qolgan elchi:

Bu ne sahovat, bu ne himmat turur,

Bu ne karam, bu ne muruvvat turur, - deb, uning oliy darajadagi saxovatiga madhiyalar o'qiydi.

Xalq og'zaki ijodi, u orqali yozma adabiyotda saxiylik, qo'li ochiqlilik timsoli sifatida qabul qilingan "Hotam Toyi hikoyasi", aytilganidek, Navoiy va Xoja tomonidan ikki xil o'zlashtirilgan.

Alisher Navoiy bu hikoyani o'zining buyuk g'oya va olijanob tuyg'ulariga bo'ysundirib, undan ijtimoiy-falsafiy xulosa chiqargan bo'lsa, Xoja o'z ijodiga xos bo'lgan odil shoh g'oyasini kuylab, shoh har qancha odil, insonparvar bo'lmasin,

bari bir, Hotam Toyi uni hayratga solarli darajada saxiyoq, saxovatliroq ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.⁸⁸

Uchinchi bob davomida o'rganilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik.

Hotam Toy timsoli asosida yaratilgan talmehlar dastlab arab she'riyatida ko'zga tashlanadi. As-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" tazkirasiga kiritilgan bir necha shoirlar asarlarida bu timsol qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Fors-tojik she'riyati biz Hotam Toy timsolini "Odam ush-shuaro" Abu Abdullo Ro'dakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz kabi mumtoz shoirlar adabiy merosida uchratdik. O'zbek mumtoz adabiyotida esa Hotam timsoliga murojaatlar nomanavislik an'anasining deyarli barcha nomalarida kuzatiladi.

Hotam timsoli aksariyat holda Jamshid, Zakhok, Faridun, Rustam, Kaykovus, Kayxusrav, Anushervon kabi Firdavsiy qahramonlari, Qorun, Sulaymon kabi diniy manbalardagi timsollar bilan birga tilga olinadi.

Alisher Navoiy badiiy ijodga aloqador bo'lgan deyarli barcha jihatlarida bo'lgani kabi an'anaviy obrazlardan foydalanish borasida ham yuksak mahorat va tasavvurga sig'maydigan darajada keng va boy tafakkur olamini namoyon etdi. Oliyhimmatlilik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazidan foydalanishda ham biz Alisher Navoiy badiiy mahoratining o'ziga xos qirralarini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oni" kulliyoti debochasidan boshlab barcha qismlarida, "Xamsa"ning barcha dostonlarida Hotam Toy timsoliga murojaat etish namunalarini uchratamiz. Yuqorida tilga olingan tarixiy va afsonaviy obrazlar bilan birga uning she'riyatida Hotam bilan birga Barmak timsoli ham qo'llanadi.

Hotam Toy dastlab saxovat ramzi sifatida namuna qilib ko'rsatilgan, ta'riflanayotgan shaxs unga o'xshatilgan, tenglashtirilgan bo'lsa, keyinchalik, bu

⁸⁸ Mirzaahmedova M, Navoiyning "Hayratul - abrор" va Xojaning "Maqsad ul-atvor" asarlari // Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. 88-bet.

mazmun bir oz o'zgardi. Endi shoirlar o'zlari ta'riflayotgan shaxsni Hotamdan ustun qilib ko'rsatishga buning uchun yangi-yangi mazmunlar, detallar ixtiro etishga harakat qilishdi. Hotam timsolidan foydalanishda Navoiy asosan shu usuldan foydalangan.

Tadqiqotning uchinchi bobi davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Alisher Navoiy badiiy ijodga aloqador bo'lgan deyarli barcha jihatlarida bo'lgani kabi an'anaviy obrazlardan foydalanish borasida ham yuksak mahorat va tasavvurga sig'maydigan darajada keng va boy tafakkur olamini namoyon etdi. Oliyhimmatlilik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazidan foydalanishda ham biz Alisher Navoiy badiiy mahoratining o'ziga xos qirralarini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oni" kulliyoti debochasidan boshlab barcha qismlarida, "Xamsa"ning barcha dostonlarida Hotam Toy timsoliga murojaat etish namunalarini uchratamiz. Yuqorida tilga olingan tarixiy va afsonaviy obrazlar bilan birga uning she'riyatida Hotam bilan birga Barmak timsoli ham qo'llanadi.

Hotam Toy dastlab saxovat ramzi sifatida namuna qilib ko'rsatilgan, ta'riflanayotgan shaxs unga o'xshatilgan, tenglashtirilgan bo'lsa, keyinchalik, bu mazmun bir oz o'zgardi. Endi shoirlar o'zlari ta'riflayotgan shaxsni Hotamdan ustun qilib ko'rsatishga buning uchun yangi-yangi mazmunlar, detallar ixtiro etishga harakat qilishdi. Hotam timsolidan foydalanishda Navoiy asosan shu usuldan foydalangan.

Sharqda yaratilgan Hotam Toy haqidagi sujetlar orasida "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyat ham alohida o'ringa ega. Buyuk mutafakkir shoir dostonida o'zining saxovat va himmat falsafasining nazariy tamoyillarini bayon etgach, buni Hotam Toy va o'tinchi chol o'rtasidagi epizodik lavha misolida yuksak mahorat bilan aks ettiradi.

XULOSALAR

Sharq adabiyotining eng mashhur timsollaridan biri, asosan saxovat, muruvvat va himmat timsoli bo'lib keladigan Hotami Toyi shaxsiyati, badiiy talqinlari haqida adabiyotshunoslikda anchagina ilmiy ma'lumot, fikr va qarashlar bildirilgan. Bu borada Y.E.Bertels, Yu.Salimov, A.Matg'oziyev, D.Salohiy va boshqa olimlarning ishlarini qayd etish mumkin. Biroq, mazkur ma'lumot va fikrlar, ayrim manbalar yuzasidan bildirilgan bo'lib, ko'p hollarda bir-birini takrorlaydi. Ular obraz va uning badiiy talqinlari haqida yaxlit tasavvur bera olmaydi. Qolaversa, tilga olingan ilmiy manbalarning aksariyati o'tgan asrning 60-80 yillar oralig'ida bajarilgan ishlar bo'lib, ularning g'oyaviy mundarijasida davr mafkurasining kuchli ta'siri seziladi. Binobarin, turkiy va fors-tojik mumtoz adabiyotida Hotam Toy timsoli ishtirok etadigan she'riy va nasriy, lirik va epik asarlarni umumlashtirgan holda, mazkur obraz bilan aloqador bo'lgan badiiyat hodisalarini tadqiq etish masalasi hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotmagam muammolardandir.

Manbalarda Hotam ismiga ega bo'lgan bir necha shaxslar haqida ma'lumot bor. Xususan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Hotam ismli ikki mutasavvuf qayd etilgan bo'lib, ularning har ikkalasi birinchi tabaqa vakillari hamda VII-VIII asrlarda yashagan tasavvuf namoyandalaridir. Biroq ularning Hotam timsoli bilan bog'liqligini isbotlaydigan faktlarga hozircha ega emasmiz. Ilmiy va badiiy manbalarda Hotam Toyi bilan bog'liq ma'lumotlar turlicha bo'lib tojik adabiyotshunosi Yu.Salimov ularni uch guruhga ajratadi.

VI-VII asrlarda yashagan arab shoiri Hotam Toyi haqidagi ma'lumotlar Abu Mansur as-saolibiyniing "Yatimat ad-dahr" tazkirasida keltirilgan. Unda bir necha shoirlar o'z asarlarida Hotam nomini aynan shoir sifatida tilga olganligi bilan birga, Abu Bakr Muhammad ibn Al-abbos Al-Xorazmiyning tazmin san'ati asosida yozilgan she'rlari orasida shoir Hotamning bir misrasiga qilingan tazmin ham mavjud.

XII-XVI asrlar mobaynida Hotam Toy timsolining sujetli asarlardagi ko'plab interpretatsiyalari maydonga keldi. Ularda bu timsol bilan bog'liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan. Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo'lib qatnashgan bo'lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o'taydi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab o'tgan mashhur shoir, nosir, mutasavvuf va mutafakkir, voizlikda tengi yo'q kishi sifatida e'tirof etilgan Husayn Voiz Koshifiy ham "Risolayi Hotamiya" nomli asar yozganligi ma'lum. Biroq bu asar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmadik.

"Bir qator sehrli qissalar silsilasi qahramoni bo'lgan Hotam" haqidagi ma'lumotlar manbai "Sarguzashti Hotam", "Haft sayri Hotam Toy" yoxud "Hotamnoma" nomlari bilan fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan xalq qissasidir. Dastlab arab tilida vujudga kelgan bu qissa XVIII-XIX fors-tojik va turkiy xalqlar, Hindistonning urdu tilida gaplashuvchi xalqlari orasida shuhrat qozonib, shu tillarga tarjima qilingan. Shunday tarjimalardan biri "Hotamnoma" kitobidir. "Hotamnoma" XIX asr oxirlarida maydonga kelgan yoxud fors-tojik tilidan tarjima qilingan. Uning dastlabki nusxalaridan biri Muhammad Hasan Olim tomonidan forschadan tarjima qilingan bo'lib, hijriy 1311 (milodiy 1893-1894) yilda Mirzo Abdulqodir Oxun ismli kotib tomonidan ko'chirilgan.

Hotamning qiyofasi, olijanob fazilatlari butun qissa davomida uning ishlari, odamlarga qilgan yaxshiliklari orqali namoyon bo'lib boradi. Bundan tashqari uning xarakteri asar muallifi (roviy) so'zlari hamda obrazlar tilidan aytilgan ta'rif va tavsiflar orqali yanada to'laroq ifodalanadi.

Hotam Toy shaxsiyatining mazkur uch xil qirrasi tamoman boshqa-boshqa shaxslar bo'lib ko'rinsa-da, mushtarak xususiyatlar ham ko'p. Binobarin, ular aslida bitta tarixiy shaxs - Arabistonning Hijoz viloyatida joylashgan Tay qabilasining boshlig'i bo'lib, taxminan VI-VII asrlarda yashagan shoir, deb

aytishimiz uchun muayyan asoslar bor. Biroq davrlar o'tishi natijasida u haqdagi rivoyatlarga boshqa asarlardagi fantastik elementlar qo'shilib ketgan.

Xalq kitoblari uslubida yaratilgan "Hotamnoma" sarguzasht-didaktik nasrning go'zal namunasi bo'lib, turkiy adabiyotning o'ziga xos manbalaridandir. U Hotam Toy haqidagi xalq orasida mavjud bo'lgan tasavvurlarni, shuningdek, xalqning komil inson haqidagi o'y-orzularini o'zidamujassam etgan asardir. Mazkur asar yaxlit kitob holida XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo'lsa-da, undagi sujrt va obrazlar, voqeliklar qadimiy ildizlarga ega.

Fors-tojik tilidagi "Sarguzashti Hotam"da har bir bob mazmuni bitta hikmatli baytdagi masala bilan bog'langan yoki bir bayt bir bob mazmunini xulosalaydi. "Hotamnoma"da esa, uning o'rniga hikmat yoki ibora sarlavha o'rnida keltirilgan. Biroq ular asliyatda bayt shaklida bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

"Hotamnoma"da oz miqdorda bo'lsa-da she'riy parchalar ham uchraydi. Ular asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Bu ham mazkur asarning "Xalq kitoblari"ga xos bo'lgan barcha badiiy xususiyatlarni o'zida mujassam etganligini ko'rsatadi.

"Hotamnoma" adabiyotimiz xazinasining nodir gavharlaridan bo'lib, uni har tomonlama o'rganish va o'qitish ezgu fazilatlar egasi bo'lgan barkamol inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fors-tojik va turkiy adabiyotida Alisher Navoiyga qadar ham Hotam Toy saxovati, fidoyiligi haqida ko'plab sujetlar yaratilgan. Xususan, Sa'diy Sheroziy, Xoju kirmoniy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy va Sayyid Qosimiy asarlaridagi hikoyatlar buning yorqin misolidir. Ularda mazkur timsol bilan bog'liq bir qator voqealar silsilasi aks ettirilgan. Mazkur sujetlarning ayrimlarida Hotam Toy saxovat, himmat, oliyanoblik va fidoyilikning yuksak namunasi sifatida asosiy qahramon bo'lib qatnashgan bo'lsa, ayrimlarida ikkinchi darajali timsol sifatida qiyoslash uchun tanlangan obraz vazifasini o'taydi.

Hotam Toy timsoli asosida yaratilgan talmehlar dastlab arab she'riyatida ko'zga tashlanadi. As-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" tazkirasiga kiritilgan bir

necha shoirlar asarlarida bu timsol qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Fors-tojik she'riyati biz Hotam Toy timsolini "Odam ush-shuaro" Abu Abdullo Ro'dakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz kabi mumtoz shoirlar adabiy merosida uchratdik. O'zbek mumtoz adabiyotida esa Hotam timsoliga murojaatlar nomanavislik an'anasining deyarli barcha nomalarida kuzatiladi. Hotam timsoli aksariyat holda Jamshid, Zahhok, Faridun, Rustam, Kaykovus, Kayxusrav, Anushervon kabi Firdavsiy qahramonlari, Qorun, Sulaymon kabi diniy manbalardagi timsollar bilan birga tilga olinadi.

Alisher Navoiy badiiy ijodga aloqador bo'lgan deyarli barcha jihatlarida bo'lgani kabi an'anaviy obrazlardan foydalanish borasida ham yuksak mahorat va tasavvurga sig'maydigan darajada keng va boy tafakkur olamini namoyon etdi. Oliyhimmatlilik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazidan foydalanishda ham biz Alisher Navoiy badiiy mahoratining o'ziga xos qirralarini ko'rishimiz mumkin. "Xazoyin ul-ma'oni" kulliyoti debochasidan boshlab barcha qismlarida, "Xamsa"ning barcha dostonlarida Hotam Toy timsoliga murojaat etish namunalarini uchratamiz. Yuqorida tilga olingan tarixiy va afsonaviy obrazlar qatorida Alisher Navoiy she'riyatida Hotam bilan birga Barmak timsoli ham qo'llanadi.

Hotam Toy dastlab saxovat ramzi sifatida namuna qilib ko'rsatilgan, ta'riflanayotgan shaxs unga o'xshatilgan, tenglashtirilgan bo'lsa, keyinchalik, bu mazmun bir oz o'zgardi. Endi shoirlar o'zlari ta'riflayotgan shaxsni Hotamdan ustun qilib ko'rsatishga buning uchun yangi-yangi mazmunlar, detallar ixtiro etishga harakat qilishdi. Hotam timsolidan foydalanishda Navoiy asosan shu usuldan foydalangan.

Sharqda yaratilgan Hotam Toy haqidagi sujetlar orasida "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyat ham alohida o'ringa ega. Buyuk mutafakkir shoir dostonida o'zining saxovat va himmat falsafasining nazariy tamoyillarini bayon etgach, buni Hotam Toy va o'tinchi chol o'rtasidagi epizodik lavha misolida yuksak mahorat bilan aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rahbariy, mafkuraviy va metodologik adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat. 2008.
2. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: Yangi avlod, 2001. - 184 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.-Xalq so'zi, 2017 yil 23-dekabr.- №258(6952).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi ПФ-4947-sonli Farmoni //Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral.

II. Ilmiy adabiyotlar

6. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.
7. Ahrorova Z., “Hayrat ul-abror” hayratlari, // Til va adabiyot ta'limi, 2007, 7-son, 7-sahifa.
8. Бертелс Е. Э. Навоий (Рус тилидан И. Мирзаев таржимаси). – Т.: Тафаккур қаноти, 2015.
9. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М.: Изд. Восточной литературы, 1962. 207-bet.
- 10.Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм.-Сам.: СамДУ нашри, 2002.
- 11.Valixojayev B. Mumtoz siymolar.-T.: A. Qodiriy, 2002.
- 12.Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) -T.: Yangi asr, 2006.

13. Жалолов Т. Хамса талқинлари.-Т., 1961.
14. Жўраев О, Алишер Навоий ва Ҳайдар Хоразмий, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 1-сон 9-13-саҳифа.
15. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Том II. – Москва-ленинград: Издательство академии наук, 1956. стр-121.
16. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи, 1996.
17. Каримова Н., Навоий-меҳнат куйчиси, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, 1-сон, 48-51-саҳифа.
18. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
19. Matg'oziyev A. «Hotamnoma» haqida // “Hotamnoma” (Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.Matg'oziyev). – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988. 3-6-betlar.
20. Мирзааҳмедов М. Хожа.-Т.: Фан, 1975.
21. Mirzaahmedova M. Navoiyning “Hayrat ul-abror” va Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonlari // Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. 83-89-betlar.
22. Mirzaahmedova M. Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni // “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1980-yil, 5-son. 66-69-betlar.
23. Муҳиддинов М. Комил инсон-адабиёт идеали. - Тошкент: Фан, 2005.
24. Навоий ва ижод сабоқлари.-Т.: Фан,1981. 83-90-сах.
25. Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: Изд. Восточной литературе, 1963.
26. Salimov Yu. Nasri rivoyatii forsu tochik. – Dushanbe: Donish, 1971.
27. Salohiy D. An'ana va vorisiylik // “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2016-yil, 1-son. 25-30-betlar.
28. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
29. Tohirov S. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni: matn, tadqiq va tahlil. – Sam.: SamDU nashri, 2009. 76-bet

30. Тоҳиров С. Хожу Кирмонийнинг “Равзат ул-анвор” достони // СамДУ “Илмий ахборотнома” си. 2015 йил 2 –сон. 57-61 бетлар.
31. Тоҳиров С. Ҳайдар Хоразмий дostonларида хамсанавислик анъанасининг айрим масалалари хусусида // Тил ва адабиёт муаммолари. – Сам.: СамДУ нашри, 2016.
32. Шукуров Ш. “Саъдий ва Навоий ижодида Хотами Тойи ҳикоятининг моҳияти ва урни” 1965. Тош. (конф).
33. Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: Tamaddun, 2015.
34. Qayumov A. “Hayrat ul abror” talqini. – Toshkent: Fan, 1977.
- Қосимхонов Б, Саййид Қосимийнинг адабий-дидактик дostonлари. – Т.: Фан, 1987. 46-49 сах.

III. Badiiy adabiyot va manbalar

35. Abu Mansur As-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr. (Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I.Abdullayev). – Toshkent: Fan, 1976. 196-bet
36. Алишер Навоий. Хамса (Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев). – Т.: ЎзбФА нашриёти, 1958. 7-162 сах.
37. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 3-tom. – Toshkent: Fan, 1988. 12-bet.
38. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990. 482-bet.
39. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 6-tom. – Toshkent: Fan, 1990. 515-bet.
40. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991.
41. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 12-том. Лисон ут-тайр. – Т.: Фан, 1996.
42. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. 46-bet.

43. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
44. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
45. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
46. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
47. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
48. Пошшоҳўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” дан.- Т.: Ўздавнашр, 1962.
49. Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. – Toshkent: Fan, 1992. 150-bet
50. Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистон.-Т.:1968.
51. Sarguzashti Hotam. Tayyorkunandagoni matn J.Azizqulov va S.Davronov. – Dushanbe, 1967.
52. Саъдий Шерозий. “Гулистон” - Тошкент: Фан, 2005.
53. Саъдий. Бўстон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
54. Xorazmiy. Muhabbatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-yil. 14-bet.
55. Ҳайдар Хоразмий. “Гулшан ул-асрор” дан // Асрлар нидоси. – Т.: Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 9-41-саҳифалар (24-31-саҳифалар).
56. Ҳотамнома. - Тошкент, Ғафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1988.
57. Hofizi Sheroziy. Muntaxabi devon. –Stalinobod: Nashriyoti davlati, 1957. 36-sah.

IV. Dissertatsiyalar

58. Абдуллаев Н. Хайдар Хорезми и его “Махзан ал асрор” автор. кон. диссерт. – Ташкент, 1974.

59. Хидирназаров С. Поема “Хайрат ал-аброр” (“Смятение праведных”) Алишера Навои. Проблемы типологии и поэтической архитектоники. Автор. канд. наук. – Ташкент, 1990.

V. Lugʻatlar

60. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тузувчилар П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Тошкент: 1983-1985.
61. Фарҳанги забони тожики. I жилд. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. 274-саҳ.
62. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-томлик. – Т.: Фан. 2008.
63. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2005.

VI. Xorijiy adabiyotlar

64. Nihad Sami Banarli. Resimli Turk Edebiyati tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basimevi, 2001.
65. Cemal Kurnaz. Eski turk edebiyati. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2001.
66. Acuq F. Ozbek edabiyati. Ankara: 2008.

VI. Elektron adabiyotlar

1. www.alishernavoiiy.uz – [http: // alishernavoiiy.uz/](http://alishernavoiiy.uz/)
2. www.ziyo-net.uz – [http: // ziyonet.uz/](http://ziyonet.uz/)
3. www.literature.uz – [http: // literature.uz/](http://literature.uz/)
4. www.kutubxona.uz – [http: // kutubxona.uz/](http://kutubxona.uz/)